BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz

VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O‘ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2024-yil 22-noyabr, №47 (3109)



4-5 KURASHLAR AVJ PALLADA...

8-9 SODIQ VA ILG‘ORLAR MAYDONI

18 NUTQ ODOBI VA MADANIYAT

“BIRGALIKDA YENGILMAS KUCHMIZ!”

6-7

10 HAMKORLIK KO‘PRIKLARI MUSTAHKAMLANMOQDA

12-13 RUHI BALAND JANGCHIGA AYLANISHNING SIRI

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA’NAVIY-MA’RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

YANGI O‘ZBEKISTONIMIZ YANGI PARLAMENTI BILAN BIRGA O‘Z TARAQQIYOTINING HAL QILUVCHI BOSQICHIGA QADAM QO‘YMOQDA

Ayni kunlarda mamlakatimizda muhim siyosiy jarayonlar kechmoqda. Yaqinda bo‘lib o‘tgan saylovlar natijasi bo‘yicha yangi parlament shakllandi. 20-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va ma’qullashga bag‘ishlangan majlisi o‘tkazildi.



Yig‘ilishni Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov olib bordi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi ijro etildi.

Yangilangan Konstitutsiyamizning 94-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va ma’qullash Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlariga kiradi. 118-moddaga ko‘ra, Bosh vazir nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etiladi.

Shu munosabat bilan majlisda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zladi.

– Mamlakatimiz o‘z oldiga qo‘ygan strategik va joriy vazifalarni amalga oshirishda barcha bo‘g‘indagi ijro organlari, avvalo, hukumat va uning rahbari zimmasidagi mas’uliyat hozirgi murakkab zamonda har qachongidan ham ortib bormoqda. Xalqimiz bugun yangi hukumatdan aniq natijalarni kutmoqda, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari, avvalo, o‘tgan besh yildagi dasturlar ijrosiga to‘xtalib o‘tdi. Bu davrda mamlakatimiz iqtisodiyoti 2 karra o‘sib, 100 milliard dollarlik tarixiy marradan oshdi. Aholi jon boshiga daromad 3 ming dollarga yetishi kutilmoqda.

Eksport qariyb 2 barobar o‘sib, ilk bor 25 milliard dollardan, oltin-valyuta zaxiralari esa 40 milliard dollardan oshdi. O‘zlashtirilgan xorijiy investisiyalar hajmi 6 karra ko‘payib, buning hisobiga 1,5 millionta yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratildi.

So‘nggi uch yilda umumiy quvvati 2,4 gigavatt bo‘lgan 9 ta yirik quyosh va shamol stansiyalari ishga tushirildi. Muqobil energiya ulushi o‘tgan yilga nisbatan 2 barobar ko‘paydi.

Maktabgacha ta’limda qamrov 74 foizdan, oliy ta’limda esa 39 foizdan oshdi. Barcha hududlarda “Inson markazlari” ochilib, ijtimoiy xodimlar tomonidan bevosita mahallalarda aholiga 100 dan ortiq ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard dollarga yetkazish maqsad qilib qo‘yilgan edi. Barcha imkoniyatlar ishga solingani tufayli bu ko‘rsatkich joriy yilning o‘zida 110 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Shunday sur’at jadal davom ettirilsa, 2030-yilga borib, mamlakatimiz iqtisodiyoti hajmini 200 milliard dollarga yetkazish salohiyati borligi ta’kidlandi. Bu aholining turmush darajasi va sifatini keskin yaxshilashga asos bo‘ladi.

Xususan, aholi jon boshiga daromadlarni 5 ming dollardan oshirish, kambag‘allik darajasini 5 foizga tushirib, ehtiyojmand aholi uchun mustahkam ijtimoiy sug‘urta tizimini joriy etish, tibbiyotga ajratilayotgan mablag‘larni 2 barobar ko‘paytirib, tibbiy sug‘urta tizimiga o‘tish va kafolatlangan tibbiy xizmatlar bilan to‘liq qamrovni ta’minlash, yiliga 150 ming kvartirali yangi zamonaviy uy-joylarni barpo etish imkoniyati yaratiladi.

Davlatimiz rahbari bu boradagi eng muhim yo‘nalishlarga e’tibor qaratdi.

Birinchidan, makroiqtisodiy muvozanatni saqlab, kelgusi besh yilda iqtisodiy o‘sish sur’atini 6-7 foiz atrofida ta’minlash zarur. Bunda inflyatsiya darajasi 5-6 foiz, byudjet taqchilligi 3 foiz doirasida bo‘lishiga erishish, yillik kreditlash hajmini 30 milliard dollarga olib chiqish asosiy vazifa bo‘ladi.

Ikkinchidan, 2025-yilda 1 million aholini kambag‘allikdan chiqarish Vazirlar Mahkamasi iqtisodiy kompleksining asosiy vazifasi etib belgilanadi. Hukumat 2030-yilgacha ishsizlikni xalqaro e’tirof etilgan daraja – 5-6 foizdan oshirmaslik bo‘yicha dolzarb vazifalarni ham samarali hal etishi lozim.

Uchinchidan, iqtisodiyot va aholi daromadlarini o‘stirishda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan sanoat tarmoqlariga alohida ahamiyat qaratish kerak. Vazirlar Mahkamasining investitsiya kompleksi kelgusi yilda, iqtisodiyotimiz uchun muhim bo‘lgan 300 dan ziyod yirik loyihani ishga tushirishi zarur. Iqtisodiyotni energiya resurslari bilan ishonchli ta’minlash va energiya samaradorligini 2 karra oshirish ham muhim masala.

To‘rtinchidan, kelgusi besh yilda iqtisodiyotning xususiy sektordagi ulushini 85 foizga yetkazish ham asosiy vazifalardan biridir. Bu borada 2 mingta korxonada davlat ulushini, 5 mingdan ziyod ko‘chmas mulk ob’yektini sotish, 16 ta yirik majmua aksiyalarini IPOga chiqarish talab etiladi. Hukumat 30 milliard dollarlik xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni ta’minlashi kerak.

Beshinchidan, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash eng dolzarb vazifa bo‘lib qoladi. Hukumat bu sohadagi dasturlar ijrosini ta’minlab, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni 1,3 barobar oshirish, har gektar yerdan olinadigan o‘rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazishi zarur.

Ta’lim sifatini oshirish, sog‘liqni saqlash va sportni rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlarni yaxshilash vazifalari ham ko‘rsatib o‘tildi.

Prezidentimiz bu maqsadlarga erishish uchun hukumat bilan parlament hamkorligi muhim ekanini ta’kidladi.

Avvalambor, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini odamlarga yanada yaqinlashtirish lozim. Qonunlar ijrosi Oliy Majlis palatalarining tegishli qo‘mitasi va mas’ul ijro etuvchi organ bilan birgalikda o‘rganib borilishi kerak.

Hukumat, vazirlik va idoralar, hududlar rahbarlari deputatlar tomonidan joylarda aniqlangan muammolarni hal etishda quyi palata qo‘mitalari bilan tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishlari lozim. Shu bois turli sohalarda nazoratni ta’minlovchi davlat inspeksiyalarning hisobotlarini Qonunchilik palatasi qo‘mitalarida muhokama qilib borish bo‘yicha yangi tizimni joriy etish tashabbusi ilgari surildi.

Parlament nazorati – bu, avvalo, “xalq nazorati, xalq so‘rovi” ekani ta’kidlandi. Bu borada barcha rahbarlar mas’uliyat va javobgarlikni to‘liq his etishi lozimligi ko‘rsatib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari xalqaro hamkorlik doirasini kengaytirish, yaqin qo‘shnilar bilan mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish masalalariga ham alohida to‘xtaldi. Shu maqsadda Tashqi siyosat konsepsiyasini yangi tahrirda qabul qilish zarurligini aytdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda boshqa yetakchi hamkor davlatlar, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, moliya institutlari bilan samarali va tizimli aloqalarni yanada rivojlantirish doimo e’tibor markazida bo‘lishi qayd etildi.

Hozirgi tahlikali davrda davlatimizning mustaqilligi va suverenitetini, xalqimizning tinch va erkin hayotini himoya qilish eng muhim vazifa ekani ta’kidlandi. Shu bois Qurolli Kuchlarimizning jangovar va ma’naviy salohiyatini oshirishga e’tibor yanada kuchaytiriladi. Yoshlarni zamonaviy bilim va kasb egalari etib tarbiyalashga katta imkoniyatlar safarbar etiladi.

– Bugun faqat mana shunday ilg‘or yoshlarga, mana shunday jonkuyar ziyolilarga, Vatan ravnaqi yo‘lida birlashgan xalqqa ega bo‘lgan davlatgina o‘z milliy manfaatlarini ta’minlashga erisha oladi, – dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga Abdulla Aripov nomzodini taqdim etdi.

A. Aripov Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan Harakat dasturini bayon qildi.

Mazkur nomzod va dastur muhokamasi yuzasidan siyosiy partiyalar fraksiya rahbarlari hamda deputatlar o‘z fikrlarini bildirdi.

Yashirin ovoz berish natijasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga Abdulla Aripov nomzodi ma’qullandi. Bu bo‘yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qarori qabul qilindi.

Majlis yakunida kelgusi yilgi ustuvor yo‘nalish ham muhokama qilindi.

Shavkat Mirziyoyev 2025-yilni yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilishni taklif etdi. Bu boradagi muhim vazifalar ko‘rsatib o‘tildi.

– Bugun xalqimiz bilan yurtimiz taraqqiyotidagi butunlay yangi davrga qadam qo‘ymoqdamiz. Ishonchim komil, bu – Yangi O‘zbekistonimiz jadal rivojlanadigan, yanada yuksak taraqqiyot cho‘qqilarini zabt etadigan davr bo‘ladi. Bu davr parlament va hukumat faoliyatida yangicha ishlash, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish bo‘yicha ibratli an’analar shakllanadigan va tarixga muhrlanadigan davr bo‘ladi, – dedi Prezident so‘zining yakunida.

O‘zA

Huquqiy poydevor

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda umumxalq ovozi bilan qabul qilindi. Referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi ham yangilangan Konstitutsiyamizda xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganligidan dalolat.





YANGI KONSTITUTSIYA: o‘zgarishlar va yangilanishlar...

Bosh qomusimiz to‘g‘risida juda uzoq gapirish mumkin. Uning istalgan moddasidagi kichik bir normaning har bir qoidasi haqida konferensiyalar, katta-katta anjumanlar, seminarlar tashkil etsa bo‘ladi.

Lekin shunda ham Konstitutsiyamiz mohiyatini to‘liq qamrab ololmaymiz. Shu bois yangi tahrirdagi Asosiy qonunimiz haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

Avvalgi tahrirdagi Konstitutsiya bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, moddalar soni 128 tadan 155 taga, normalar 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman aytganda, Konstitutsiya qariyb 65 foizga yangilandi.

Solishtirish uchun, yangi tahrirdagi Konstitutsiya muqaddima, 6 ta bo‘lim, 27 ta bob, 155 ta moddadan tarkib topgan. Avvalgi tahrirdagisi muqaddima, 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat bo‘lgan.

Alohida aytib o‘tish kerak, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga doir normalar 3 barobardan ziyodga ortdi.

Xususan, konstitutsiyaviy huquqlar doirasi ekologik huquqlar, sog‘liqni saqlash, gender tenglik, erkin harakatlanish, turar va yashash joyini erkin tanlash, mamlakatdan chiqish va moneliksiz qaytish, internetdan foydalanish, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, oliy ta’lim, bepul yuridik yordam olish, davlat xizmatiga kirishda tenglik, uy-joyga ega bo‘lish, undan mahrum etilganda kompensatsiya olish, bank operatsiyalari va hisobvaraqlarining sir saqlanishi, qonunchilikka oid taklif kiritish kabi huquqlar bilan to‘ldirildi.

Sodda qilib aytganda, ko‘plab yangi normalarni ko‘rishimiz mumkin.

Shu o‘rinda eng asosiy yangiliklardan ayrimlarini sanasak:

“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi” deb belgilandi *(15-moddada)*.

Bu norma muayyan masalada uni tartibga soluvchi qonun yoki qonunosti hujjatlari mavjud yoxud mavjud emasligidan qat’i nazar, bevosita Konstitutsiyadagi normalarga asosan ish olib borish kerakligini anglatadi.

Bilamiz, ijtimoiy munosabatlar doim rivojlanishda, o‘zgarishda bo‘ladi, ularni normativ hujjatlarda to‘liq qamrab olishning imkoni yo‘q.

Endilikda 20-moddaga ko‘ra, “Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi”.

O‘qituvchilar alohida e’tirof etildi. 52-moddada belgilanganidek, “O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”.

Yangi Konstitutsiyada “Ommaviy axborot vositalari” nomli bob ikkita moddadan iborat bo‘ldi *(81-82-moddalar)*.

Asosiy yangilik – OAV faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish javobgarlikka sabab bo‘lishi Konstitutsiya darajasida belgilandi.

Davlat hokimiyati tashkil etilishidagi o‘zgarishlar:

– Bosh vazir nomzodini Prezident taqdim etadi. Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining yarmidan ko‘pi ovoz bersa, Bosh vazir nomzodi ma’qullangan hisoblanadi.

Nomzod uch marta rad etilsa, Prezident Bosh vazirni tayinlab, Qonunchilik palatasini tarqatib yuborishga haqli *(avvalgi tartibga ko‘ra, Bosh vazir nomzodini Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko‘p o‘rin olgan partiya taklif qilar, Prezident ma’qullagach, nomzod ikki palata tomonidan tasdiqlanishi talab etilardi)*;

– Senatorlar 100 dan 65 nafarga tushirildi. Qoraqalpog‘iston, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda 4 *(avvalgisida 6)* nafardan senator saylanadi, Prezident tayinlaydigan senatorlar soni 16 nafardan 9 nafarga qisqardi;

– Bosh vazirni tayinlash va unga ishonchsizlik votumi bildirishda Senatning ishtiroki bekor qilindi. Endilikda buning uchun deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismi ovoz berishi yetarli *(avval har ikki palata a’zolarining uchdan ikki qismi ovoz berishi zarur edi)*.

Bosh vazir va hukumat a’zolarining hisobotlarini eshitish quyi palata vakolatiga o‘tdi. Qonunchilik palatasi hukumat a’zolarini iste’foga chiqarish haqida Prezidentga taklif kiritish vakolatiga ega bo‘ldi;

– Korrupsiyaga va monopoliyaga qarshi kurashish organlari rahbarlarini Prezident taqdimiga binoan saylash Senatning vakolatiga kiritildi. Senat eng yuqori sud mansabdorlarini saylaydi, Bosh prokuror va Hisob palatasi raisligiga nomzodlarni ko‘rib chiqib ma’qullaydi, DXX raisligiga nomzod bo‘yicha Prezident bilan maslahatlashuv o‘tkazadi, Markaziy bank raisini, xorijdagi asosiy diplomatlarni tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi *(barchasi Prezident taqdimiga binoan amalga oshiriladi)*.

Senat mahalliy Kengashlarning qonunga zid qarorlarini bekor qilish vakolatiga ega bo‘ldi;

– Qonunchilik palatasi qonunlar bo‘yicha qo‘shimcha vakolat oldi. Unga ko‘ra, endilikda Senat qonunni ma’qullash yoki rad etish to‘g‘risida 60 kun ichida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi qonunni Prezidentga yuboradi. Qonunlarning Prezident tomonidan imzolanishi va e’lon qilinishi uchun belgilangan muddat 30 kundan 60 kunga uzaytirildi;

– Prezident muddatidan ilgari Prezident saylovini tayinlashga haqli ekani belgilandi. 2023-yil 8-may kungi “Muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlash to‘g‘risida”gi PF-68-son Prezident farmoni qabul qilinishi bilan bu konstitutsiyaviy normaning amaliy ifodasini ko‘rdik;

– Qonunchilik palatasi va Senatga o‘zini o‘zi tarqatib yuborish vakolati berildi *(palata a’zolarining kamida uchdan ikki qismining ovozi talab etiladi)*;

– Konstitutsiyaviy sud sudyalari 10 yil muddatga saylanadi va qayta saylanishi mumkin bo‘lmaydi;

– Ayni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq bitta lavozimni egallashi mumkin emasligi haqidagi qoida, Prezidentdan tashqari yana Senat Raisi, Qonunchilik palatasi Spikeri, Oliy sud raisi va o‘rinbosari, Sudyalar oliy kengashining raisi va o‘rinbosari, Markaziy saylov komissiyasi raisi, Bosh prokuror, hokimlar va mahalliy Kengashlar raislariga nisbatan ham tatbiq etiladigan bo‘ldi.

Adliya podpolkovnigi
Botir SOBIROV tayyorladi.



“AMIR TEMUR JANGOVAR BAYROG‘I UCHUN”: KURASHLAR AVJ PALLADA...





Yurt himoyachilarining jangovar-ruhiy tayyorgarligini mustahkamlash, xizmat faoliyatida erishgan yutuqlarini munosib rag‘batlantirish, harbiy okruglar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida “Amir Temur jangovar bayrog‘i uchun” musobaqasining joriy yilgi bahslarida ham barcha harbiy okrug qo‘shinlari kurashga bel bog‘ladi. Xabaringiz bor, mazkur bellashuvlarda eng yuqori natijalarga erishgan harbiy okrugga ona Vatanga sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik va harbiy sharaf ramzi bo‘lgan “Amir Temur jangovar bayrog‘i” tantanali tarzda topshiriladi.

Ikki yilda bir marotaba o‘tkaziladigan ushbu bellashuvning bu yilgi ochilish marosimi o‘ziga xos tarzda o‘tib, unda Mudofaa vazirligi rahbariyati, faxriylar, harbiy xizmatchilar, kursantlar va yoshlar ishtirok etdi.

Tadbirda so‘z olganlar sohibqironning “Kuch – adolatda” shioriga amal qilgan holda, musobaqa ishtirokchilari va tashkilotchilaridan adolat tantana qilishini, qaysi jamoa tadbirli, salohiyatli va jismonan kuchli bo‘lsa, o‘sha tarkib, albatta g‘olib bo‘lishini ta’kidladi.

Shundan so‘ng Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti kursantlari ishtirokida faxriy qorovul va desantchilarning ko‘rgazmali chiqishlari hamda harbiy orkestrning jangovar kuylari yig‘ilganlarga ko‘tarinki kayfiyat ulashdi.

Toshkent harbiy okrugiga qarashli harbiy qism va dala-o‘quv maydonida “Amir Temur jangovar bayrog‘i uchun” kechgan musobaqalar haqiqatan ham shiddatli kechdi. Bellashuvning ilk kunida ishtirokchilar sportning milliy kurash turi bo‘yicha 5 ta vazn toifasida bahslarga kirishdi. Unda har bir ishtirokchi o‘zining mahorati va chapdastligini amalda namoyon etdi. Shiddatli va qizg‘in ruhda o‘tgan musobaqa qatnashchilarining chiqishlari hakamlar tomonidan xolis baholab borildi.

MILLIY KURASH BAHSLARI

66 kg vazn toifasida:

3-o‘rin – Markaziy harbiy okrug jamoasi a’zosi, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Anvar Toshpo‘latov;

2-o‘rin – Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi a’zosi, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Dilmurod Jo‘rayev;

1-o‘rin – Toshkent harbiy okrugi jamoasi a’zosi, kichik serjant Artyom Shturbabin.

73 kg vazn toifasida:

3-o‘rin – Mudofaa vazirligiga qarashli qo‘mondonlik jamoasi a’zosi, leytenant Shavkat Saidqulov;

2-o‘rin – Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi a’zosi, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Muhriddin G‘iyosov;

1-o‘rin – Markaziy harbiy okrug jamoasi a’zosi, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Farruh Hasanov.

81 kg vazn toifasida:

3-o‘rin – Markaziy harbiy okrug jamoasi a’zosi, muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Temur Jo‘rayev;

2-o‘rin – Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi a’zosi, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Shahriyor Toshtemirov;

1-o‘rin – Toshkent harbiy okrugi jamoasi a’zosi, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Ahror Ziyodullayev.

90 kg vazn toifasida:

3-o‘rin – Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi a’zosi, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Ramazon Allaberdiyev;

2-o‘rin – Toshkent harbiy okrugi jamoasi a’zosi, kichik serjant Lutfullo Rajabov;

1-o‘rin – Mudofaa vazirligiga qarashli qo‘mondonlik jamoasi a’zosi, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Ikrom O‘rolov.

+100 kg vazn toifasida:

3-o‘rin – Markaziy harbiy okrug jamoasi a’zosi, kichik serjant Shahzod Orzuqulov;

2-o‘rin – Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi a’zosi, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Feruz Baxshullayev;

1-o‘rin – Toshkent harbiy okrugi jamoasi a’zosi, kichik serjant Muhammadkarim Xurramov.

Shunday qilib, musobaqaning milliy kurash turi bo‘yicha o‘tkazilgan bahslarda umumjamoa hisobida quyidagi natijalar qayd etildi:

3-o‘rin – Markaziy harbiy okrug terma jamoasi;

2-o‘rin – Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug terma jamoasi;

1-o‘rin – Toshkent harbiy okrugi terma jamoasi.

TOSH KO‘TARISH BAHSLARI

Ushbu bahs bilagi zo‘r bahodirlarga shaxsiy rekordlarni yangilash imkonini berdi. Unda professional va havaskor sportchilar o‘z jamoasi sharafini munosib himoya qilish uchun maydonga tushdi.

Demak, **75 kg vazn toifasida** uchinchi o‘rin – Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug jamoasi a’zosi, kichik serjant F. Majidovga nasib etgan bo‘lsa, ikkinchi o‘rinni – Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi a’zosi, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar S. Inomov qo‘lga kiritdi. Birinchi o‘ringa Toshkent harbiy okrugi jamoasi a’zosi, III darajali serjant N. Mirzayev munosib deb topildi.

Shuningdek, **80 kg vazn toifasida** ham g‘oliblar nomi aniq bo‘ldi.

Uchinchi o‘rinni Toshkent harbiy okrugi jamoasi a’zosi, kichik serjant G‘. Jabborov band etdi. Ikkinchi o‘rinni Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug jamoasi a’zosi, kichik serjant A. Nurmamatov qo‘lga kiritdi. Birinchi o‘rin esa Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi a’zosi, kichik serjant A. Kimsanovga nasib etdi.





Muallif suratga olgan



85 kg vazn toifasida:

3-o‘rin – Toshkent harbiy okrugi jamoasi a’zosi, kichik serjant Sh. To‘rayev;

2-o‘rin – Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug jamoasi a’zosi, kichik serjant X. Faxriddinov;

1-o‘rin – Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi a’zosi, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi oddiy askar A. Ibodullayev.

90 kg vazn toifasida:

3-o‘rin Toshkent harbiy okrugi jamoasi a’zosi, kichik serjant Sh. Usmonov;

2-o‘rin Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug jamoasi a’zosi, kichik serjant X. Qo‘ziboyev;

1-o‘rin – Sharqiy harbiy okrug jamoasi a’zosi, leytenant A. Yuldoshev.

+90 kg vazn toifasida:

3-o‘rin – Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi a’zosi, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar J. O‘rinboyev;

2-o‘rin – Toshkent harbiy okrugi jamoasi a’zosi, katta leytenant S. Xadjanov;

1-o‘rin – Mudofaa vazirligiga qarashli qo‘mondonlik jamoasi a’zosi, kichik serjant J. Eshmamatov.

Musobaqaning tosh ko‘tarish turi bo‘yicha umumjamoa hisobida quyidagi natijalar qayd etildi:

3-o‘rin – Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug terma jamoasi;

2-o‘rin – Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug terma jamoasi;

1-o‘rin – Toshkent harbiy okrugi terma jamoasi.

Musobaqaning “Milliy tariximiz va “Temur tuzuklari” bilimdoni” shartida ham asl bilimdonlar aniqlandi. Demak, ushbu bahsda uchinchi o‘rinni Toshkent harbiy okrugi terma jamoasi band etgan bo‘lsa, ikkinchi o‘rinni Markaziy harbiy okrug terma jamoasi egalladi. Birinchi o‘rin Mudofaa vazirligi Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari va Harbiy havo kuchlari qo‘mondonligi terma jamoasiga berildi.

“KITOBXONLIK” BELLASHUVI

Ushbu shartda o‘g‘lonlar o‘zlari o‘qigan badiiy kitoblarning mazmun-mohiyatini ochib berishga harakat qildi. Milliy tariximiz va “Temur tuzuklari” bo‘yicha tuzilgan savollarga to‘laqonli javob bergan ishtirokchilar yakunda o‘z natijalari tahlillari orqali muhim xulosalarga ega bo‘lishdi. Unga ko‘ra, uchinchi o‘rin – Markaziy harbiy okrug terma jamoasiga, ikkinchi o‘rin – Sharqiy harbiy okrug terma jamoasiga va birinchi o‘rin – Toshkent harbiy okrugi terma jamoasi vakillariga nasib etdi.

“CHAVANDOZLIK” BELLASHUVI

Ota-bobolarimizning ot ustidagi bemisl san’ati bugungi yosh avlod yuragini yondirishi ham bejiz emas. Bu jihat, ayniqsa ushbu musobaqa bahslarida ham o‘z aksini topdi. Vazifalarni a’lo darajada bajarib, nimalarga qodir ekanliklarini isbotlagan ishtirokchilarning natijalari quyidagicha bo‘ldi:

3-o‘rin – Markaziy harbiy okrug terma jamoasi;

2-o‘rin – Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug terma jamoasi;

1-o‘rin – Toshkent harbiy okrugi terma jamoasi.

Ta’kidlash kerakki, jangda mag‘lubiyat neligini bilmagan, doimo odilona va kengashli yurishlarni amalga oshirgan sohibqiron bayrog‘i doim ko‘klarda mag‘rur hilpiragan. Bugungi avlod uchun bu hodisa chin ma’noda g‘urur va iftixor timsoli hisoblanadi. Bir necha kun davomida o‘z okruglari sha’ni uchun munosib kurash olib borgan mardi maydonlar o‘tgan kunlar davomida katta tajriba va bukilmas irodaga ega bo‘lishdi.

Musobaqaning ikkinchi *(yakuniy)* bosqichida Mudofaa vazirligining maxsus komissiyasi tomonidan yil davomida turli xalqaro va respublika miqyosidagi musobaqa hamda ko‘rik-tanlovlar natijalari sarhisob qilinadi. Shu bilan birga, harbiy okruglar *(birlashmalar)* jamoalari bilan milliy sport turlari va milliy qadriyatlar yo‘nalishida musobaqalar o‘tkaziladi. Ana shu bahslarda birinchi o‘rinni egallagan harbiy okrugga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda 14-yanvar – Vatan himoyachilar kuni bayrami arafasida “Amir Temur jangovar bayrog‘i” tantanali ravishda topshiriladi.

Eslatib o‘tamiz, bundan oldingi musobaqada Markaziy harbiy okrug jamoasi g‘olib sifatida “Amir Temur jangovar bayrog‘i”ni qabul qilib olgan edi.

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”







“BIRGALIKDA YENGILMAS KUCHIMIZ!”

“Qo‘shning tinch, sen tinch.” “Yon qo‘shni, jon qo‘shni...” Har qanday jamiyatda davlatlar o‘rtasidagi qo‘shnichilik aloqalarining mustahkamligi ijtimoiy hayot maromini belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Ayniqsa, bu holat qo‘shni davlatlarning tarixi, madaniyati, dini, urf-odatlari qardoshlik, qondoshlik jihatlari bilan bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lsa. Bunday qo‘shnichilikni bir oilaning ikki farzandi sifatida tasavvur qilsa bo‘ladi va O‘zbekiston hamda Qozog‘iston haqida bemalol shunday fikr bildirish mumkin.

O‘zbek va qozoq xalqlari o‘rtasida barcha sohalarda bo‘lgani kabi harbiy sohada ham, do‘stona munosabatlar hamkorligidagi o‘quv-mashg‘ulotlarida ham o‘z aksini topmoqda. Keyingi paytda harbiy aloqalar muntazam yo‘lga qo‘yilib, an’anaga aylanib boryapti. Ikki davlat Mudofaa vazirligi hamkorligida Aktau, O‘tror *(Atirau)*, Angren, Termiz, Jizzaxda o‘tkazilgan mashg‘ulotlar buning yaqqol misolidir. Markaziy harbiy okrugda joylashgan “Forish” tog‘ poligonida O‘zbekiston–Qozog‘iston harbiy xizmatchilari ishtirokidagi navbatdagi maxsus-taktik o‘quv mashg‘ulotlari an’anani davom ettirdi.

“Xanjar–2024” nomi ostida tashkillashtirilgan yig‘inning ochilish marosimida saf maydoniga ikki qardosh davlat bayroqlari tantanali olib kirildi. O‘zbekiston va Qozog‘iston Respublikalari madhiyasi sadolari ostida maxsus-taktik o‘quv mashg‘ulotlari qatnashchilari shaxdam qadamlar bilan maydondan o‘tishdi.

Tantanali ochilish marosimidan so‘ng Qozog‘iston harbiy delegatsiyasi rahbarlari bilan brifingda o‘quv mashg‘ulot dasturi bo‘yicha rejalar muhokama qilindi. O‘n kunlik mashg‘ulotlar dasturi asosida ko‘plab amaliy harakatlar haqida o‘zaro tajriba almashishga kelishib olindi. Xususan, dasturga muvofiq, turli jangovar qurollardan otish, shartli aholi yashash hududida jang olib borish va harakatlarni tahlil qilish, ruhiy zo‘riqishlarni yengib o‘tish jarayonlari amalga oshirildi.

Qo‘shma o‘quv-mashg‘ulotning asosiy bosqichiga deyarli bir hafta davomida puxta tayyorgarlik ko‘rildi. Bungacha ikki davlat harbiy xizmatchilari “Xanjar–2024” maxsus-taktik o‘quv mashg‘ulotlarining yakuniy muvaffaqiyatini ta’minlash maqsadida bosqichma-bosqich harakatlarni amalga oshirdi. Chunki asosiy maqsad – dushman joylashgan hududga qo‘qqisdan, xanjarning o‘tkir tig‘idek, yashin tezligida yorib kirishdan iborat edi. Markaziy harbiy okrug qo‘mondoni polkovnik Farrux Ziyabayev, Qozog‘iston harbiy delegatsiyasi boshlig‘i polkovnik Sayat Burbasov va boshqa mas’ul ofitserlar kuzatuvi ostida o‘tgan



yakuniy bosqich mashg‘ulot qatnashchilari oldidagi mas’uliyatni yanada oshirdi.

Dastlab shartli dushman joylashgan binolarga minomyotchilar, merganlar, pulemyotchilar guruhlari va kamikadze dronlarining hujumi tashkillashtirildi. Uning ortidan ishga tushgan ishg‘ol guruhi uchta binoda tozalash jarayonini shiddat bilan amalga oshirdi. Harakatlar jangovar zirhli texnikalar va Amur, Milana, Frenda, Maks laqabli xizmat itlari ko‘magida amalga oshirilib, sanoqli daqiqalar ichida ko‘zlangan maqsadga erishildi.

Xuddi tantanali ochilish marosimidagidek “Forish” tog‘ poligoni saf maydoniga ikki davlat bayrog‘i olib kirildi. Ikki davlat madhiyasi sadolari yangradi. Polkovnik Farrux Ziyabayev hamda polkovnik Sayat Burbasov hamkorlikdagi o‘quv-mashg‘ulotining qardosh davlatlar do‘stona munosabatlarini yanada mustahkamlashi borasidagi jihatlariga alohida to‘xtalib o‘tishdi. “Xanjar–2024”da faollik ko‘rsatgan harbiy xizmatchilarga O‘zbekiston va Qozog‘iston Mudofaa vazirliklarining maxsus ko‘krak nishonlari topshirildi.

Esdalik uchun suratga tushish jarayoni tugashi bilan o‘zbek va qozoq tilida aytilgan “Birgalikda yengilmas kuchmiz!” so‘zlari Forish tog‘larida aks-sado bergandek bo‘ldi. Bu aks-sado yuzlab qalblar orqali his etildi.

– Do‘stona ruhda o‘tgan o‘quv yig‘ini davomida biz uchun milliy taomlar kuni, futbol musobaqasi hamda Samarqand shahriga sayohat tashkillashtirilgani e’tiborga molik, – deydi qozog‘istonlik harbiy xizmatchi O‘ljas Tugurbayev. – Bunday do‘stona muhitda mashg‘ulotlar uchun belgilangan vaqtning o‘tganini ham sezmay qolibmiz. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining maxsus ko‘krak nishoni bilan taqdirlanishim, men uchun kutilmagan sovg‘a bo‘ldi. Davlatlarimizning tinchligi abadiy bo‘lib, qardoshlik rishtalarimiz hech qachon uzilmasin.

Leytenant Azimjon Ikromjonov: – Tantanali ochilish va yopilish marosimi, mashg‘ulotda faollik ko‘rsatganlarning taqdirlanishi, qozoq qardoshlarimiz bilan jipslikda harakat qilishimiz... Bilasizmi, men uchun eng yodda qolarli voqea nima bo‘ldi?! Barcha tadbirlar tugab, eng oxirida ikki qatorga qarama-qarshi saflanib, o‘zaro esdalik sovg‘a almashish jarayoni bo‘ldi. Saf orasidan qadrdon insonni izlardik. Chunki o‘n kun davomida yo‘qotib qo‘ygan qadrdonlarimizni topganday bo‘lgandik-da. Hammamiz bir-birimizga tug‘ishgan jigarlardek qarab, bir necha soniya qotib qoldik. Keyin sovg‘a almashish bahonasida bir-birimizni bag‘rimizga bosdik. Ana shu pallada o‘zbek va qozoq xalqining qondosh ekanini butun tanamda his etdim.

Asror RO‘ZIBOYEV,
“Vatanparvar”







Muallif suratga olgan



SODIQ VA ILG‘ORLAR MAYDONI

Mashhur yozuvchi Jek London “Oq so‘yloq” asarida it va inson o‘rtasidagi nozik chegara, so‘zsiz muloqot va vafodorlik fazilatlarini o‘ziga xos shaklda ochib beradiki, kitobxon beixtiyor o‘zini yuksak tilsimotlar ichiga tushib qolganday his etadi. Haqiqatan ham, insonlar itlarni qo‘lga o‘rgatgan davrdan boshlab, ushbu sadoqatli jonivorlar hayotimizning juda ko‘p jabhalarida bizga yaqin yordamchi, ko‘makchi hisoblanadi. Harbiy tuzilmalarda esa aynan kinologiya xizmatidan maxsus vazifalarda foydalaniladi.







Mudofaa vazirligiga qarashli Mutaxassis va xizmat itlarini tayyorlash markazida ilk bor o‘tkazilgan “Men g‘olib!” shiori ostida bo‘lib o‘tgan “Eng yaxshi kinolog” ko‘rik-tanlovi kim nimaga qodir, kim o‘z kasbining haqiqiy ustasi ekanini amalda isbotlash imkonini berdi.

Bellashuvlarda Mudofaa vazirligining harbiy okrug va muassasalaridan kelgan jami 30 nafar harbiy xizmatchi hamda ularning xizmat itlari birinchilik uchun murosasiz kurash olib bordi.

Musobaqada harbiy kinologlar “300 metrli masofaga to‘siqlarni xizmat iti bilan yengib o‘tgan holda yugurish”, “Bo‘ysunish”, “Iz qidiruv yo‘nalishi”, “Kinolog mergan” hamda “Kinolog va xizmat itlari yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus mashqlarni bajarish” kabi shartlarda o‘zaro kurash olib bordi.

Ta’kidlash kerakki, shartlar haqiqatan ham murakkab. Demak, yaxshi tayyorgarlik ko‘rmagan va o‘z malakasini oshirib kelmagan “sodiq do‘stlar” bunda ko‘zlagan marrani zabt eta olmaydi. Biroq bugun maydonda kurash olib borayotgan bu azamatlar o‘z kasbining ustasi, mahoratli, yetarli tajribaga ega mutaxassislar sanaladi.

– Mutaxassis va xizmat itining mustahkam tayyorgarligi, bir-birini tushunish va moslashib ketish kabi jihatlar hal etuvchi ahamiyatga ega, – deya o‘z tajribalarini o‘rtoqlashdi Mudofaa vazirligi Mutaxassis va xizmat itlarini tayyorlash markazi boshlig‘i mayor Shodiyor Shomurodov.

– Buning uchun kinolog o‘zining xizmat iti bilan yillar davomida, bosqichma-bosqich shug‘ullanishi, uni tayyorlashi kerak. Itlarni 1 yoshligidan boshlab tanlab olamiz va ularni tarbiyalashni boshlaymiz. Umuman olganda, Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism va muassasalarda yildan yilga ayni sohani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mutaxassislarga zarur shart-sharoitlar yaratib berilyapti. Ana shunday xayrli tashabbuslar va olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar samarasi o‘laroq vakillarimiz nafaqat mamlakatimizda o‘tkazilayotgan turli musobaqalarda, balki xalqaro maydondagi nufuzli bahslarda ham g‘alaba qozonib, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelyapti.

– Aslida har bir inson qalbida men g‘olib, degan tuyg‘u jo‘sh uradi, – deydi III darajali serjant Otabek Ro‘ziyev. – Ammo o‘qib-o‘rgangan, izlangan, yo‘lida uchragan turli to‘siqlarga bardosh bera olganlargina hayotda, faoliyatda zafar quchib, muvaffaqiyatga erishadi. O‘tkazilayotgan ushbu bahslarda Nemo laqabli xizmat itim bilan ishtirok etmoqdaman. Ikkimiz berilayotgan shartlarni yuqori mahorat bilan bajaryapmiz. Ayniqsa, “do‘stim” topshiriqlarni kutganimdan ham ziyod uddalayapti. Raqiblarimiz ham yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan, o‘z kasbining ustalari, professionallar. Ular bilan o‘zaro tajriba almashyapmiz, bilmaganlarimizni o‘rganib, bilganlarimizni o‘rtoqlashyapmiz. O‘tkazilayotgan musobaqadan ko‘zlangan asosiy maqsad ham aslida ana shundan iborat.

Bahslar hakamlar hay’ati a’zolari tomonidan xolisona baholab borildi. Qiziqarli va murosasiz kurashlarga boy tarzda o‘tgan mazkur ko‘rik-tanlovning har bir shartida barcha ishtirokchilar mardlik, epchillik, qat’iyatlilik, g‘alabaga intiluvchanlik, ishonch va mas’uliyat xislatlarini amalda namoyon etishdi.

Qariyb bir hafta davomida yurt o‘g‘lonlari 5 bosqichli “Eng yaxshi kinolog” ko‘rik-tanlovida mardonavor bellashib, xizmat itlari bilan o‘z matonatlarini amalda namoyish etdilar. Shiddatli tarzda kechgan kurashlar so‘ngida esa munosiblar nomi aniq bo‘ldi.

Demak, uchinchi o‘rin – Janubiy-g‘arbiy maxsus harbiy okrug harbiy xizmatchisi, kichik serjant Sanjar Safarov va Sharqiy harbiy okrug harbiy xizmatchisi, III darajali serjant Alisher Murodovga nasib etdi.

Ikkinchi o‘rinni – Surxondaryo viloyatida joylashgan harbiy qismlarning birida xizmat qilib kelayotgan III darajali serjant Daler Ikromov va Mudofaa vazirligiga qarashli qo‘mondonlik harbiy xizmatchisi, kichik serjant Qurbon Yarashevlar qo‘lga kiritdi.

Bellashuvlarning mutlaq g‘olibi esa Toshkent harbiy okrugi harbiy xizmatchisi, III darajali serjant Ulug‘bek Nurullayev deb topildi. Shuningdek, turli yo‘nalish va nominatsiyalar bo‘yicha ham sovrindorlar aniqlab olindi. Musobaqa so‘ngida ular diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

– Bahslar kasbiy tayyorgarligimizni chin ma’noda sinovdan o‘tkazish imkonini berdi, – deydi Toshkent harbiy okrugi harbiy xizmatchisi, III darajali serjant Ulug‘bek Nurullayev. – To‘g‘ri, musobaqa shartlari bizga mutlaqo notanish edi. Chunki ushbu ko‘rik-tanlov

birinchi bor o‘tkazilmoqda. Shunday bo‘lsa ham, barcha qatnashchilar berilgan vazifalarni matonat bilan bajarishga harakat qildi. Bu yerda hamma o‘zi uchun kurashdi. Qiyinchilik va turli to‘siqlarni sabr-bardosh ila yengib o‘tdi. Ishongani, yillar davomida to‘plagan tajribasi, egallagan bilimi va “sodiq do‘sti” – xizmat itlari bo‘ldi. Men ham Bayarga suyangan edim. Hayriyat, uyaltirib qo‘ymadi. Har bir shartda bir-birimizni his qilib, harakatlandik. Aslida bu kinolog uchun o‘ta muhim. Sababi it o‘z egasi tomonidan to‘g‘ri yo‘naltirilsa, unga aniq topshiriq berilsa, qo‘yilgan vazifani a’lo darajada bajaradi. Biz g‘oliblik uchun eng kuchlilar kurashgan musobaqada zafar quchdik. Ammo bu bilan aslo to‘xtab qolmaymiz. Hali Bayar bilan ikkimiz boshqa bahslarda ham ishtirok etib, g‘alaba qozonishimiz kerak. Demak, ertadan yana mashg‘ulotlarga kirishamiz.

– Bilasizmi, itlarni ham o‘z xarakteri bo‘ladi, – deydi Toshkent harbiy okrugida xizmat olib borayotgan kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Hakimboy O‘ktamov. – Agar ularga mehr berib, e’zozlasangiz va parvarish qilsangiz, albatta, shunga monand javob ham olasiz. Reksning har bir harakati menga tanish. Uning ko‘zlaridan nima xohlayotganini bilib olaman. Ikkimiz bir-birimizni so‘zsiz tushunamiz va anglaymiz. Bu, ehtimol, o‘rtamizda qurilgan do‘stlik rishtasidir. Axir azal-azaldan insoniyat itlarni o‘ziga yaqin hamroh, qolaversa, himoyachi va sadoqatli do‘st bilgan. Bu to‘g‘risida qancha-qancha badiiy asarlar va filmlar suratga olinmagan, deysiz. Xususan, Hatiko laqabli it haqidagi kinoni ko‘rmagan kishi bo‘lmasa kerak. Men ham ana shu filmni tomosha qilib, albatta, kaminada xuddi shunday it bo‘ladi, uni Hatiko singari parvarishlab, ulg‘aytiraman, deb yurardim. Mana, bugun o‘z xizmat itim – Reks bilanman. Ikkimiz ko‘plab musobaqa va ko‘rik-tanlovlarda qatnashdik, munosiblar safida bo‘ldik. Albatta, bu natijalarning barchasi, avvalo, Mudofaa vazirligi tomonidan bizlarga yaratib berilayotgan sharoit va qulayliklar sabab deb bilaman. Chunki qo‘llov va imkoniyat bo‘lmasa, har qancha harakat qilmang, ko‘zlagan marrangizga yetib borolmaysiz.

– Aid ochiq maydonda sayr qilishni, o‘ynashni juda xush ko‘radi,– deydi Markaziy harbiy okrug harbiy xizmatchisi, III darajali serjant Abdurauf Nuraliyev o‘zining xizmat itini erkalab. – U bilan 2 yildan buyon birgamiz. To‘g‘ri, bu qisqa vaqt bo‘lishi mumkin. Ammo biz bir-birimizni yaxshi anglashimiz uchun bu yetarli muddat bo‘la oldi, deb o‘ylayman. Mashg‘ulotlarda o‘zaro harakatlarimizni yanada muvofiqlashtirib kelyapmiz. Ba’zida tayyorgarlik jarayonlarida uning qaysarligi tutib qoladi. Ana o‘shanda bilamanki, u bir xillikdan, qayta-qayta berilayotgan vazifalarni bajarishdan zerikkan bo‘ladi. Shunda Aidni o‘z holiga qo‘yaman, sira qistovga olmayman. Hatto urishmayman ham. Chunki har bir jonivor o‘ziga nisbatan bo‘layotgan munosabatni yaxshi anglaydi, his etadi. Men esa “sodiq do‘st”imni ranjitishni istamayman. Ta’kidlashim kerakki, biz uchun faoliyatimizda yangi sahifa ochildi. Boisi “Men g‘olib!” shoiri ostida ilk bor o‘tkazilayotgan “Eng yaxshi kinolog” ko‘rik-tanlovida ishtirok etib, xizmat itim bilan o‘z imkoniyatlarimizni amalda sinovdan o‘tkazib olyapmiz. Bu yerda eng munosiblar qatnashdi. Ular bilan tengma-teng vazifalarni bajardik. Mahoratimiz va “do‘st”ligimizni barchaga amalda ko‘rsatdik.

Xulosa qilib aytganda, bugun milliy armiyamiz saflaridagi har bir harbiy xizmatchida g‘oliblik ruhiyati, bu mening vzvodim, bu mening armiyam qabilidagi daxldorlik hissi bor. O‘tkazilgan “Eng yaxshi kinolog” ko‘rik-tanlovi ana shu xislatlarni yanada mustahkamlashi bilan ham ahamiyatlidir.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”



HAMKORLIK KO‘PRIKLARI mustahkamlanmoqda



So‘nggi yillarda mamlakatimizning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda, ko‘plab xorijiy davlatlar bilan barcha sohalarda o‘zaro hamkorlikni amalga oshirish borasida salmoqli natijalarga erishilmoqda.



Xususan, o‘tkazilayotgan qator xalqaro konferensiyalar, o‘quv-seminarlari, treninglar va respublikamiz hamda xorijiy mamlakatlarda tashkil etilayotgan ishchi uchrashuvlarda Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari vakillari ham samarali ishtirok etib kelmoqda.

Ana shunday muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tadbirlardan biri sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari va Tojikiston Respublikasi Milliy xavfsizlik davlat qo‘mitasi Chegara qo‘shinlari Harbiy kengashi yig‘ilishini qayd etish o‘rinlidir.



Surxondaryo viloyatida bo‘lib o‘tgan mazkur do‘stona uchrashuv davomida, ikki davlat chegara idoralarining rahbarlari ishtirok etib, birgalikda qo‘riqlanayotgan chegara hududlaridagi mavjud vaziyat yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Shuningdek, O‘zbekiston–Tojikiston davlat chegarasini qo‘riqlash yuzasidan 2024-yil uchun belgilangan vazifalar ijrosi xususida so‘z yuritilib, birgalikda erishilgan natijalar sarhisob qilingach, ikki tomonlama idoralararo hamkorlikni yanada rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari belgilab olindi.

Uchrashuvda ikki qardosh davlat chegara organlarining hamkorlikdagi sa’y-harakatlari natijasida, davlat chegarasining birgalikda qo‘riqlanayotgan hududlarida barqaror vaziyatni ta’minlash borasida qator ijobiy natijalarga erishilayotgani ham e’tirof etildi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, O‘zbekiston–Tojikiston chegara idoralari o‘rtasidagi hamkorlikning hozirgi holati terrorizm, narkotik moddalarining noqonuniy aylanmasi, uyushgan jinoyatchilik va boshqa zamonaviy chaqiriq hamda tahdidlarga qarshi samarali tura olish imkonini berishi ham yig‘ilish ishtirokchilarining diqqat-e’tiborida bo‘ldi.

O‘zaro hamjihatlik, do‘stlik va konstruktiv muloqot muhitida o‘tgan uchrashuv davomida, tomonlar o‘zlarini qiziqtirgan barcha masalalar yuzasidan hamkorlikni yanada rivojlantirishga tayyor va manfaatdor ekanliklarini qayd etdi. Mintaqa davlatlari o‘rtasidagi yaqin qo‘shnichilik va hamdo‘stlik aloqalarini ta’minlash esa tinchlik va barqarorlikning mustahkam garovi ekani har ikki davlat vakillari tomonidan alohida ta’kidlandi.

Mazkur keng qamrovli tadbir doirasida, O‘zbekiston–Tojikiston–Afg‘oniston davlat chegaralari tutashgan hududda “PAYVAND – 2024” maxsus-taktik o‘quvi ham bo‘lib o‘tdi. Ikki davlat chegarachilari tomonidan noqonuniy qurollangan guruhlar harakati xususidagi tezkor xabar o‘z bo‘linmalariga uzatilganidan so‘ng bo‘linmalardan og‘ir hamda yengil zirhli texnikalarda zudlik bilan harakatlangan harbiy xizmatchilar belgilangan hududlarga yetib kelib, o‘t ochish pozitsiyalarini egalladilar. Qisqa fursatlarda amalga oshirilgan tezkor harakatlar natijasida, shartli dushman quruqlikdan, havodan va suv sathidan o‘qqa tutilib, yo‘q qilindi.

Hamkorlikda o‘tkazilgan ushbu maxsus-taktik o‘quv mashg‘uloti o‘zbek va tojik chegarachilarining yuqori kasbiy, jismoniy hamda jangovar salohiyatini ifodalash bilan birga, davlat chegarasini buzishga uringan har qanday qurollangan dushmanga qarshi birgalikda tura olish ko‘nikmasini ham amalda namoyon etdi.

– Bugun shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyo manzarasi, turli xavf-xatar va tahdidlar, shuningdek mintaqamizdagi geosiyosiy vaziyat barchamizni birdek ogohlikka undaydi. O‘tkazilgan jangovar o‘quv mashg‘uloti davomida ham bo‘linmamiz tomonidan belgilangan vazifalarni qo‘shni tojikistonlik hamkasblarimiz bilan birgalikda qisqa fursatlarda amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldik. Eng muhimi, harbiy xizmatchilarimiz bir-birini himoyalagan holda, ikki davlat fuqarolarining tinchligiga xavf soluvchi har qanday tahdidga qarshi yagona kuch bo‘lib harakatlana olish qobiliyatiga ega ekaniga yana bir bor guvoh bo‘ldik, – deydi mayor Sanjarbek Sobirov.

Taktik mashg‘ulotlar yakunida har ikki davlatning Chegara qo‘shinlari qo‘mondonlari tomonidan faol ishtirokchilarga ko‘krak nishoni, esdalik qo‘lsoati hamda qimmatbaho sovg‘alar topshirildi.

Shuningdek, tashkil etilgan tadbirlar doirasida, ishtirokchilar viloyatning Termiz tumanidagi Al Hakim at-Termiziy ziyoratgohida ham bo‘lib, ko‘p yillik yagona tariximiz, o‘xshash madaniyatlar, mushtarak til va ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligiga oid ko‘plab tarixiy ma’lumotlarga ega bo‘ldilar.

O‘zbekiston va Tojikiston chegarachilari ishtirokida o‘tkazilgan futbol bo‘yicha o‘rtoqlik uchrashuvi ham samimiy va do‘stona ruhda kechib, ikki qardosh millat vakillarining jamoaviy ahilligini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Albatta, o‘tkazilayotgan bu kabi tadbirlar o‘zaro hamkorlik ko‘priklarini yanada mustahkamlab, har ikki davlat chegaralarining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashda muhim omil ekani, shubhasiz.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo‘shinlari

O‘quv-uslubiy yig‘in

ENG MUNOSIBLAR ANIQLANDI

Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasida Mudofaa vazirligi tizimida faoliyat yuritib kelayotgan xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a’zolari bilan ishlash bo‘yicha yetakchi mutaxassislar ishtirokida o‘quv-uslubiy yig‘in bo‘lib o‘tdi.







Unda dastlab Mudofaa vazirligi xotin-qizlar va harbiy oilalar bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassisi Zulfiya Mansurova so‘zga chiqib, ayollarning jamiyat va oilada tutgan o‘rni hamisha muhim mezon bo‘lib kelganini ta’kidlar ekan, bu nozik qalb egalarining jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini yanada oshirish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy hamda huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash borasidagi islohotlar yurtimizda gender tenglikni hamda teng huquqlilikni ta’minlashdagi ijtimoiy adolat namunasi, ekanini alohida e’tirof etdi. Aytilgan fikrlarga hamohang o‘laroq o‘tgan vaqt davomida Mudofaa vazirligi tizimida ayni sohada amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha batafsil ma’lumot berdi. Harbiy qism hamda muassasalardagi xotin-qizlar va harbiy oilalar bilan ishlash bo‘yicha yetakchi mutaxassislarning faoliyatini yanada kengaytirish, samaradorlikni oshirish borasida fikr-mulohazalari bilan o‘rtoqlashdi. Shuningdek, mutaxassislarning erishgan yutuq va kamchiliklariga ham nazar tashlandi.

Yig‘in ishtirokchilar uchun yangi bilimlarga boy bo‘ldi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki nufuzli tashkilotlardan mehmon sifatida taklif etilgan mutaxassis-ekspertlarning oilalar o‘rtasidagi sog‘lom muhitni barqarorlashtirish, ularning bandligini ta’minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, oilalardagi tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish, oila a’zolarini turli yot g‘oyalar, shu jumladan ommaviy madaniyatdan asrash, ajrimga sabab bo‘luvchi omillar va ularning salbiy oqibatlari, er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarini mustahkamlash, qolaversa, gender masalalari, banklar tomonidan harbiy oilalarga imtiyozli kreditlar ajratish xususidagi dolzarb chiqishlari barchaga birdek manzur bo‘ldi.

Albatta, har bir inson o‘ziga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan ado etsa, ko‘zlagan marrani zabt etadi. Shu hayot haqiqatidan kelib chiqib, ushbu yig‘inda ham soha vakillarining bilim va ko‘nikmalarini oshirish bugun har qachongidan ham muhim ekani misollarda keltirib o‘tildi.

O‘quv-uslubiy yig‘indan so‘ng qo‘shinlarda faoliyat yuritib kelayotgan ayni kasb egalari ishtirokida “Xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a’zolari bilan ishlash bo‘yicha eng ilg‘or yetakchi mutaxassis” tanlovi o‘tkazildi. 3 shartni o‘z ichiga olgan mazkur tanlov chin ma’noda haqiqiy fidoyilarni aniqlash imkonini berdi. Qatnashchilar tanlov davomida berilgan vazifa va topshiriqlarni yuqori mahorat bilan bajardi. Ta’kidlash kerakki, har bir shart kim nimaga qodir, kim o‘z kasbining ustasi ekanini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Qisqasi, sog‘lom raqobat va o‘zaro tajriba almashish maqsadida tashkil etilgan ushbu tanlov so‘ngida munosiblar orasidan eng ilg‘orlar aniqlab olindi.

Unga ko‘ra, harbiy okrug boshqaruv apparatlari xotin-qizlar va harbiy oilalar bilan ishlash bo‘yicha yetakchi mutaxassislari o‘rtasida Gulbahor Habibullayeva *(Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug)* va Dilorom Mamatova *(Sharqiy harbiy okrug)* munosib topildi. Ikkinchi o‘rinni esa Hilola Tursumatova *(Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari va Harbiy havo kuchlari)* egalladi. Uchinchi o‘rinni Dilshoda Saidmurodova *(Markaziy harbiy okrug)* qo‘lga kiritdi.

Harbiy qism va muassasalar xotin-qizlar va harbiy oilalar bilan ishlash bo‘yicha yetakchi mutaxassislari o‘rtasida o‘tkazilgan tanlov ham shiddatli va qiziqarli kechdi. Unda oltmishdan ortiq ishtirokchi o‘zaro kuch sinashdi. Yakuniy natijaga ko‘ra, birinchi o‘rin 3 nafar ishtirokchiga – Maxfira Allaberganova *(Toshkent harbiy okrugi)*, Malika Mirzayeva *(Markaziy harbiy klinik gospitali)* va Nargiza Abdullayevaga *(markazga bo‘ysunuvchi harbiy qism)* nasib qildi. Ikkinchi o‘rinni Dildora Abdurahmonova *(Qurolli Kuchlar akademiyasi)* hamda Zulayho Sabirova *(Toshkent harbiy okrugi)*, uchinchi o‘rinni esa Oydiniso Inatullayeva *(Markaziy harbiy okrug)* egalladi.

G‘olib va sovrindorlar diplom, qimmatbaho va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Podpolkovnik
G. HOJIMURODOVA

KONSTITUTSIYADA YOSHLAR HUQUQI

O`zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi barcha sohalarni o`z ichiga jamlagan, yoshlarning huquqlariga ham alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, 80-modda “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratadi”, deya ta’kidlangandir.

Xalq Konstitutsiyasi deya e’tirof etilgan yangi tahrirdagi Bosh qonunimizda “Yangi O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” degan tamoyil qat’iy belgilangani bejiz emas. Chunki ijtimoiy davlat negizida “Inson qadrini ulug‘lash” g‘oyasi yotadi va bu har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini kafolatlash, sifatli ta’lim va tibbiy xizmat, bolalar, xotin-qizlar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, muhtojlar bandligi, uy-joy bilan ta’minlash, xavfsiz mehnat sharoitlarini kafolatlash va yana eng muhim jihat yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash belgilab berilgan. Davlatimiz tomonidan Yoshlarga oid davlat dasturi ishlab chiqilgan. Bu dasturning asosiy yo‘nalishlari esa quyidagilardan iborat:

- yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash;
- yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash;
- yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish;
- yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash;
- yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;
- yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish;
- yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;
- iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish;
- yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va sportni ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yosh oilalarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;
- yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi doirasida, yoshlarning oliy ta’lim olishi uchun yaratilgan imkoniyatlarni e’tirof etish joiz. Respublikamizda “El-yurt umidi” jamg‘armasi samarali faoliyat olib borayotgani ham quvonarli.

Mamlakatimizda oliy ta’lim bilan yoshlarni qamrab olish 42 foizdan oshdi. Nodavlat oliy ta’lim muassasalari soni ortyapti. Xalqaro oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlari bilan respublikamiz oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida ikki tomonlama hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi.

Chet tillardan milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan yoshlar ko‘rsatkichlari oshdi, oliy ta’lim muassasalariga qabul qilishdagi kirish testlaridan ozod etish imkoniyati ulardagi chet tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada yuksaltirdi.

Yoshlar kelajagi uchun muhim bo‘lgan bunday islohotlarni uzoq davom ettirish mumkin. Asosiysi, ijtimoiy davlat barpo etishning huquqiy asosi yaratilgan O‘zbekistonda “Yangi O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” tamoyili amalda o‘z isbotini topmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, yangi Konstitutsiya yoshlarimiz uchun imkoniyatlarni huquqiy jihatdan kafolatlab qo‘ygan.

Ruzmat DADAJANOV,
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti

RUHI BALAND JANGCHIGA AYLANISHNING SIRI



Robert Grin
“Urushning 33 strategiyasi” asaridan.

Hayot – bu doimiy kurashdan iborat. Odamlar dog‘uli, ayyor va haqiqiy o‘y-rejalarini yashirib, sizga ittifoqchi yoki do‘st bo‘lib ko‘rinishlari mumkin. Siz esa do‘st kim, dushman kim – aniq bilgingiz keladi. Shu bois odam tanib, ularni ajrata bilish xususiyatini o‘zingizda shakllantiring. Hayot yo‘lingizdagi noxushlik, nafrat uyg‘otadigan odamlar siz uchun kurash va kuch-quvvat manbai bo‘lishi mumkin.



Eramizga qadar 401-yilda forslar shohi Artakserksning ukasi Kir uchun yunon yollanma jangchilaridan iborat armiya safida xizmat qilishga, Afina atrofida istiqomat qilayotgan o‘ttiz yoshli o‘ziga to‘q Ksenofont bir do‘stidan taklif oladi. Bu taklif o‘ta g‘ayritabiiy edi. Chunki uzoq asrlardan buyon forslar va yunonlar o‘zaro dushmanlashib kelishar va ushbu voqeadan sakson yil burun ham Eron Yunonistonni bosib olishga uringandi. Biroq o‘sha davrlarda janglarda toblangan va boylikka o‘ch yunon jangchilari kim ko‘p pul to‘lasa, o‘shanga o‘z xizmatlarini taklif qila boshlashgandi. Bundan Kir foydalanib qolmoqchi bo‘ladi. Fors imperiyasi tarkibida bo‘ysunmay, qo‘zg‘olon ko‘targan shaharlar bor edi. Ana shularni tanobini tortib qo‘yish maqsadida Kir yunon jangchilaridan iborat yollanma armiya tuzadi.

Ksenofont janglarda toblangan askar emasdi. U inson sifatida juda yumshoq ko‘ngilli, otlar va itlarning ishqibozi edi. Ko‘pincha, Afinaga borib do‘sti, mashhur faylasuf Suqrot bilan suhbat qurishni yaxshi ko‘rardi. Shu asnoda o‘ziga qolgan merosni sekin-asta yeb bitkazmoqda edi. Ammo uning ko‘ngli mudom qiziqarli voqealarni, uzoq ellarga safar va yangi taassurotlarni tilardi. Ayni shunday kayfiyatda yurgan chog‘ida forslar mamlakatini ko‘rish va kimsan buyuk Kir bilan uchrashish imkoni tug‘ilib qoladi. U urushga yollanma jangchi sifatida emas *(uning boyligi harqalay o‘ziga yetarli edi)* faylasuf va tarixchi bo‘lib borishga qaror qiladi. Urushdan qaytib kelganidan so‘ng ko‘rgan-kechirganlari haqida kitob yozishni niyat qiladi. U kohindan maslahat so‘rab, yollanma jangchilar safiga qo‘shiladi.

Bo‘ysunishdan bosh tortgan shaharlarga qarshi Kirning jazo ekspeditsiyasi safiga 13 ming nafar yunon yollanma askar kelib qo‘shiladi. Butun Yunonistondan pul va ajoyibotlarni ko‘rish ishtiyoqida jam bo‘lgan bu odamlarning xarakteri, tarbiyasi, dunyoqarashi va maslagi turlicha edi. Dastlab hammasi risoladagidek kechadi. Biroq oradan bir-necha oy o‘tib, armiya fors davlatining ichkarisiga kirganidan so‘ng Kir o‘zining haqiqiy maqsadini oshkor qiladi: u akasi taxtini egallash uchun fuqarolar urushini qo‘zg‘ab, Vavilon tomon yo‘l oladi. Aldangan yunonlar norozilik bildira boshlaganida Kir ularga katta pul va’da qilib, tinchlantiradi.

Kir va Artakserks qo‘shinlari Vavilon atrofidagi Kunaks qishlog‘ida o‘zaro to‘qnash keladi. Kir jang boshlanishi bilanoq halok bo‘ladi va shu bilan urush to‘xtaydi. Yunonlar kutilmaganda juda noqulay va qaltis ahvolga tushib qolishadi: ular mag‘lubiyatga uchragan armiya safida, yurtlaridan juda olisda va dushman forslar qurshovida edilar. Artakserksning elchilari kelib, siz bilan jang qilmaymiz – faqat Erondan tezroq chiqib keting, degan xabarni yetkazadi. Shoh yunonlarga, hatto ot-aravalarda yo‘l uchun oziq-ovqat va ularni kuzatib qo‘yish maqsadida lashkarboshilaridan biri Tissafernni jo‘natadi. Shu tariqa yunonlar bir yarim ming mil uzoqlikda joylashgan yurtlari tomon Tissafern boshchiligida yo‘l olishadi.

Bir-necha kun yo‘l bosgan yunonlar yana xavotirga tushib qolishadi: ajratilgan oziq-ovqat miqdori juda kam va Tissafern boshlab borayotgan yo‘nalish shubhali edi. Umuman, forslarga ishonsa bo‘ladimi o‘zi? Qo‘rquvga tushgan yunonlar o‘rtasida g‘ala-g‘ovur boshlanadi.

Yunonlar harbiy qo‘mondoni Klearx forslar lashkarboshisiga o‘z noroziligini bildiradi. Tissafern oradagi anglashilmovchilikni bartaraf etish uchun Klearxni barcha komandirlari bilan uchrashuvga taklif qiladi. Ertasi kuni uchrashuvga kelgan Klearx boshchiligidagi barcha yunon komandirlarini pistirmada turgan

fors qo‘shinlari o‘rab oladi va barchalarining boshini qilichdan o‘tkazadi.

Komandirlardan biri qochib qutulishga muvaffaq bo‘ladi va forslarning xiyonatidan yunonlarni ogoh etadi. Kechga borib yunonlar lagerini mudhish va tushkun kayfiyat, umidsizlik qamrab oladi. Kimdir sho‘r taqdirdan, kimdir komandirlardan va yana kimdir forslardan nolib, ularni qarg‘ab hamda bunday chorasiz holga tushib qolganlari uchun kimlarnidir ayblay boshlaydi.

Bu talato‘pdan alohida ajralib turgan Ksenofont kechasi tush ko‘radi: samoda Zevs tomonidan yuborilgan chaqmoq tufayli ota uyi yorishib ketgan emish. Uni sovuq ter bosib, uyg‘onib ketadi. O‘lim va halokat shundoq ostonada turgan pallada yunonlar umidsizlik va tushkunlikdan rosa ichib, mast-alas holda kimdandir nolib, norozi bo‘lib, kimlarnidir qarg‘ab yurishsa-ya?!





Aslida bunday vaziyatga tushib qolganliklari uchun faqat ularning o‘zi aybdor emasmi?

Ksenofont shunday qarorga keladi: yunonlar va ularning yurti o‘rtasida tog‘lar, daryolar yoki forslar qo‘shini emas – o‘zlarining sodir bo‘lgan voqea va vujudga kelgan vaziyatga nisbatan noto‘g‘ri munosabat va qarashlari to‘siq bo‘lib turibdi! Yunon armiyasining ana shunday aqlsizlarcha sharmandali halokatini Ksenofont, hatto tasavvuriga sig‘dira olmasdi. Ksenofont harbiy kasbdan yiroq bo‘lsa-da, lekin falsafiy mushohada yuritish unga begona emasdi. U behuda nolishlarni bas qilib, yunonlarni qirib tashlashga shay turgan, dushmanga qarshi jangchilar safarbar qilinsa, albatta, mushkul ahvoldan qutulishga ishonardi. Xiyonatkor forslarga qarshi yunonlarning butun qahr-u g‘azabi yo‘naltirilsa va bu g‘oya tushunarli tarzda ularning ong-u shuuriga yetkazilsa, g‘alabaga erishish mumkinligini his qiladi.

Ksenofont yunonlar aqli va yo‘lini yoritadigan Zevs chaqmog‘iga aylanishga bel bog‘laydi. U tirik qolgan komandirlarni huzuriga chorlab rejasini bayon etadi: ikkilanib yurishni bas qilib, darhol forslarga qarshi ayovsiz urush boshlash va dushman bilan endi hech qachon muzokaraga kirishmaslik lozim. Quruq gap, besamar tortishuvlar va o‘z-o‘zini hamda boshqalarni ayblashni bas qilib, butun kuch va imkoniyatlarni forslarga qarshi yo‘naltirish zarur. Bunday Marafon jangida forslarni mag‘lub etgan ajdodlarimiz kabi donolik va jasurlik yo‘ldoshimiz bo‘ladi. Biz oziq-ovqat ortilgan barcha aravalarni yoqib yuboramiz va faqat yerdan nasibamizni topib yeymiz. Biz qo‘lga tushmas, tez harakatlanadigan epchil armiyaga aylanamiz. Yotganda ham, turganda ham qurollarimizni qo‘limizdan qo‘ymaymiz. Ezgulik yoki yovuzlik, bizlar yoki dushmanlarimiz g‘alaba qiladi – boshqa yo‘l yo‘q. Qonga qon, jonga jon! Oramizdan kimdir forslar bilan yarashuvni yoki ichimizga ixtilof soladigan boshqa bir safsata bilan va’z o‘qiy boshlasa, bilinki u qo‘rqoq yoki sotqin. Qalbimizdan rahm-shafqat tuyg‘usi yo‘qolganiga forslarning o‘zi aybdor. Uyimizga tirik qaytishimiz kerak, degan birgina fikr butun aql-idrok va vujudimizni qamrab olsin!

Jangchilar Ksenofontning yuqoridagi fikr va da’vatini tinglab, u haq ekanini tan olishadi. Ertasiga shoh Artakserks yana muzokara olib borish uchun lashkarboshilaridan birini yunonlar huzuriga jo‘natadi. Ksenofont maslahatiga quloq tutgan yunonlar lashkarboshini haydab soladilar. Endi haqiqiy urush boshlanishiga hech qanday shubha-gumon qolmaydi.

Voqealarning yangi o‘zanidan va tub burilishidan ilhomlangan yunonlar o‘zlariga komandirlar saylashadi. Albatta, bu komandirlar safida Ksenofont ham bor edi. Endilikda faqat o‘z-o‘zlariga umid bog‘lagan yunonlar tezda mahalliy sharoitga moslashib, zarur vaqtda forslar bilan to‘qnashuvdan qochish maqsadida yashirinib, mavridi keldi deguncha, ildam harakat qilib, yurtlari tomon shitob bilan yo‘l olishadi. Hal qiluvchi tog‘ dovoniga forslardan avval yetib kelib, undan oshib o‘tishadi. Ayni shu dovonda yunonlarni qirib tashlashni rejalashtirgan forslar kech qolishadi. Yunonistonga qadar hali uzoq yo‘llarda ularni ko‘plab mashaqqat va sinovlar kutib turgan bo‘lsa-da, eng muhimi forslar iskanjasi va ta’qibidan qutilishadi. Bir-necha yildan keyin ularning barchasi eson-omon Yunonistonga yetib kelishga muvaffaq bo‘ladi.

Voqeaga sharh

Ma’lumki hayot doimiy kurashdan iborat. Ba’zan yoqimsiz janjallarga aralashib qolasiz, ayrim vaqtlarda o‘zaro murakkab munosabatlar girdobiga tushib qolasiz, goho esa manfaatingizga mos kelmaydigan vazifalarni bajarishingizga to‘g‘ri keladi. Qiyinchiliklarni qanday yengib o‘tishingiz va mushkul vaziyatlarda o‘zingizni qanday tutishingiz kelgusi taqdiringizni hal qiladi. Yunonlar og‘ir vaziyatga tushib qolganda, Ksenofont nima deganini eslang? “Yurt tomon yo‘lingizga daryolar, tog‘lar yoki forslar emas, sizlarning o‘zingiz, mavjud vaziyatga munosabatingiz to‘siq bo‘lib turibdi!”

Mabodo qo‘lingiz ishdan sovib, o‘zingizni ojiz va notavon deb his qilsangiz, agarda yo‘ldan adashib, qaysi eshikka bosh suqishni bilmasangiz, do‘st bilan dushmanni farqlay olmasangiz, bularning barchasiga o‘zingiz aybdorsiz.

Ana shunday ruhiy holatda hayotga qarashingizni o‘zgartirib, hammasi faqat o‘zimga bog‘liq, deb aql-o‘ylaringizni kurashga yo‘naltiring. Voqealarga nisbatan munosabatingizni o‘zgartirsangiz yo‘ldan adashgan va nima qilishini bilmaydigan yollanma askardan, ruhi baland va g‘alaba sari intilayotgan kurashchi-jangchiga aylanasiz.

Jaloliddin SAFOYEV tarjimasi



Haq va betakror so‘z axtaradigan odam hikoyasi



SHOIRA SHAMS

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoira.

Bu darajaga qanday erishdi ekan?

Yetuk bir insonni ko‘rganda har qanday kishida shunday savol tug‘ilishi tabiiy. Ko‘pdan Shoira Shamsning ijodini kuzatib boraman. Hayratlanaman. Bunday go‘zal she’rlar, quyma satrlar qanday dunyoga kelar ekan, deb o‘ylanaman.

Bilaman, hamma narsa kitobdan boshlanadi. Va savolim ham uning atrofida aylanadi? Ular bolalikda qanday kitoblar o‘qigan? Hozir qanday asarlar o‘qiydi? Qayta-qayta varaqlaydigan sevimli asarlari bormikan? Bor bo‘lsa, u kimning asari?

Keling, bugun taniqli shoira, ko‘hna Xorazmning aziz farzandi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Shoira Shamsning kitob olami bilan tanishamiz.

– Ota uyimiz qishloqning mo‘jazgina kutubxonalaridan birining yaqinida joylashgan edi. Bugun o‘ylab qarasam, bolaligimning eng mazmunli va go‘zal sahifalari o‘sha kutubxona bilan ham bog‘liq ekan.

Devorlari eskirgan, pastakkina bir uyning katta yo‘lga qaragan tomonidan kichkinagina bir hujrasi kutubxona qilingan edi. Shu kichkinagina, ammo kitoblarga to‘la bu xona bola ko‘zimga ulkan bir dunyoday, mo‘jizalar maskani kabi g‘aroyib ko‘rinardi. Bolalar uchun, ayniqsa men uchun juda qadrli edi. Kun ora o‘sha kutubxonaga qatnash sevimli korimiz edi. Ba’zan ertalablari, ba’zida esa tushlik vaqtida, hali maktabgayam bormagan jingalak soch singilcham bilan kutubxonachi opajon kelmasidan oldin borib, kutubxona eshigi tagida bolalar bilan kichkinagina qulf solingan eski, kichkina eshikning ochilishini kutib turardik. Kutubxonachi opamiz ko‘rinishi bilan quvonib ketardik. Yugurib borib, qo‘llaridan ushlab olardik. Qo‘limizdan kitoblarimizni qaytarib olar ekan: “Qani, gapirib beringlar-chi, bir-bir, nimalarni o‘qidingiz?” deb barchamizni so‘roqqa tutardilar.

Odatda, bizga kitoblar o‘n kun, bir haftadan kam muddatga berilmasdi, ammo men kitobni ikki kundayoq o‘qib tugatib, yana yangi kitob olishga oshiqib boraverardim. “Bunday qilish mumkin emas, kitobni aytilgan vaqtda keltir. Senga hali yangi kitob bera olmayman”, deya ba’zida tanbeh berib qo‘yardilar. Bunday paytlarda



KO‘NGLIM QANDAY IZTIROB CHEKKANI HALIYAM ESIMDA. Ammo mehribon opamizning ko‘nglini topish oson edi. Bitta ertak yoki bitta she’r o‘qib berib, yana yangi kitob olish baxtiga muyassar bo‘lardik.

Tengqurlarim, sinfdoshlarim ichida kutubxonaga qatnaydiganlar ko‘pchilik edi. Hech qachon kutubxonamiz bo‘sh, kutubxonachi opamiz bekor bo‘lmasdi. Ammo bu kutubxona uzoqqa bormadi. Bir-ikki yildan so‘ng eski binoligi uchun uni boshqa joyga ko‘chirishdi. Yangi kutubxonaga esa olisroq bo‘lgani uchun ko‘p bormas edik. Ammo kitob mutolaasi maktab kutubxonasi yoki do‘stlar o‘qigan kitoblarni almashish yo‘li bilan davom etaverdi.

ONAMNING SHAXSIY KUTUBXONASI meni mumtoz adabiyotga oshno qilgan xazina bo‘lgan. Alisher Navoiy, Lutfiy, Hofiz Xorazmiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrabni anglash uchun men bu xazina ichida yillab yashaganman. Va bu ishtiyoq hanuz meni tark etmagan.

Ilk bor o‘qiganim katta asarlardan biri ispan adibi Servantesning “Don Kixot” romani bo‘lgan. Bu asar bolaligimda meni qanday ta’sirlantirgan bo‘lsa, o‘sha tuyg‘ularim haliyam o‘shanday jonlanadi, eslasam. Asardagi ikki qahramon Don Kixot va Sancho Pansa men uchun dunyodagi eng o‘ng‘aysiz odamlar bo‘lib ko‘ringan. Birorta ishi hayotga to‘g‘ri kelmaydigan xayolparastlikning cho‘qqisi meni bolaligimda bunchalik xayol surib, xomxayol ortidan quvib yashab bo‘lmasligini o‘shandayoq achchiq kartinalarda ko‘rsatib bergan. Men uzoq vaqt shu asar ta’sirida yurganman. Nega unday odam-a, bular, degan o‘ylarda yashaganman.

Hazrat Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarining nasriy bayoni *(muallifi Sharafiddin Sharipov, muharrir Suyima G‘aniyeva. G‘afur G‘ulom nashriyoti. 1984-yilgi nashr)* ham meni qattiq hayajonga solgan. Undagi rivoyatlar meni ruhan tarbiyalagan bo‘lsa, asar mantiqan men uchun yechib bo‘lmas sir kabi edi.

She’riyat o‘zga bir olam. Shoir esa boshqalardan farqli odam. Shoir tuyg‘ulari bilan yashashni istaydigan, umri davomida so‘zga mahliyo bo‘lib, dunyodan mol-u davlat emas, haq va betakror so‘z axtaradigan odamdir! Shoir uchun ijod lahzasidan, ilhomli damlardan go‘zalroq lahza bo‘lmasa kerak.

Men bu sirli dunyoga bolaligimdanoq mahliyo bo‘lganman. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bo‘lgan damlarimda ham kitoblardan she’r axtarib topib, she’r o‘qib huzurlanganlarim kechagidek yodimda. Birinchi she’rim onamga bag‘ishlangan edi. Onam adabiyot o‘qituvchisi va o‘zlari ham ijodkor.

SHE’RIYATDAGI BIRINCHI USTOZIM – ONAM! Qofiya nimaligini, badiiy san’at nimaligini anglatgan, o‘rgatgan inson, she’rlarimni ham ayovsiz tahrir va tanqid qilgan munaqqidim ham ular. Ba’zan tanqidlardan ko‘nglim og‘rib, yig‘laganlarim, boshqa she’r yozmaslikka o‘zimga o‘zim so‘z bergan damlarim bo‘lgan. Ammo ijod va ilhom bu ilohiydan ekanki, hech qachon she’riyatdan ayro yashay olmadim. Buni tasavvur ham qila olmayman.

Bugun ijodkorlarga berilayotgan e’tibor va imkoniyatlar bundan o‘n yillar oldingiga nisbatan ancha yaxshi. Yozuvchilar uyushmasi homiyligida chop etilayotgan kitoblar, mamlakatimizning chekka-chekka qishloqlarigacha yetib boryapti. Shoir uchun yaxshi ijod namunasi bilan tanilish imkoniyati ham, yaxshi asarlarni topib o‘qish imkoni ham ancha katta hozir.

YURTIMIZNING JASORATLI FARZANDLARIGA, qalbida shijoati qaynab turgan yoshlarga Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni *(o‘zim juda sevganim va chin ishqni tanishga imkon beruvchi asar bo‘lgani bois)* va g‘azaliyoti, Bobur, Ogahiy, Mashrab g‘azaliyoti, Lev Tolstoyning “Iqrornoma” asarini, Paulo Koeloning “Alkimyogar” romani, Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani va “Jamila” qissasini, Servantesning “Don Kixot” romanini o‘qishlarini tavsiya qilaman.

Umuman olganda, jahon va o‘zbek adabiyotining zabardast ijodkorlari asarlarini mutolaa qilib borish lozim. Inson oilada kamol topadi. Kitobsevar ota-ona Vatanga komil farzandlarni tarbiyalab beradi.

Suhbatdosh
Inobat IBROHIMOVA

Men vatanparvarman

ZUKKO QIZLARNI KASHF ETMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, DXX Chegara va IIV Qorovul qo‘shinlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi ayollar bilan O‘zbekiston Respublikasi harbiy prokuraturasi tashabbusi ostida olis hududlardagi maktablarda o‘quvchi-qizlar o‘rtasida “Men vatanparvarman” shiori ostida o‘tkazilayotgan tadbirlar davom etmoqda.



DONO, ZUKKO, VATANPARVAR...

Toshkent viloyati Bekobod tumanining chekka hududida joylashgan 44-umumta’lim maktabidamiz. Maktabning yuqori sinf o‘quvchilari uchun kutilgan hayajonli damlar yetib keldi. Ular besh bosqichdan iborat ko‘rik-tanlovga harbiy ustozlari boshchiligida astoydil tayyorgarlik ko‘rishgan. Zimmalaridagi vazifani qayta-qayta takrorlashgan. Bugun ularning bilim va zakovati sinovdan o‘tadi. Tadbir avvalida so‘z olgan Guliston harbiy prokurori adliya podpolkovnigi Farrux Jumayev ko‘rik-tanlovning mazmun-mohiyatiga urg‘u bergan holda, harbiy libosda qad rostlab turgan o‘quvchi-qizlarga omad tiladi. Istiqbollariga ezgu tilaklar bildirdi.

Umumta’lim maktabining 11-sinf qizlaridan tuzilgan “Yosh gvardiyachilar”, 10-sinf o‘quvchilaridan tashkil etilgan “Vatanparvar jadidlar” hamda 9-sinf qizlari ishtirokidagi “To‘maris izdoshlari” guruhlari bilim va iqtidor maydonida qad rostlashdi. Ularning “Tanishtiruv”, “Vatan haqida she’r”, “Tasviriy san’at”, “Savol-javoblar” va “Sahna ko‘rinishi” kabi besh bosqichdan iborat chiqishlarini hay’at a’zolari odilona baholab bordi.

Guruh qizlarining sahnada iqtidorini namoyish etishi oson emas, tomoshabinlar oldida hayajon bosishi tabiiy hol. Biroq ularni har tomonlama tayyorlagan kichik serjantlar – Xumora Alimova, Aziza Ortiqova va Sevara Akaburxanovaga tashakkur aytsak, arziydi. Ularning sa’y-harakati, o‘quvchi-qizlarning bilimdonligi va iqtidori bellashuv davomida o‘z so‘zini aytdi. Ishtirokchilarning har bir chiqishi olqishlarga sazovor bo‘ldi. Vatanga bag‘ishlangan she’rlar tarannumi, aktyorlarga xos ijro etilgan sahna ko‘rinishlari, qizlardagi zukkolik va dadillik e’tiroflarga zamin yaratdi. Maktabdagi raqs guruhi qizlarining chiqishlari tadbirni sho‘x-shodon o‘tishiga munosib ulush qo‘shdi.



Tadbir so‘ngida barcha ko‘rik-tanlov ishtirokchilariga qimmatbaho sovg‘alar topshirildi.

Albatta, qizlarning bilim va qobilyatini yuzaga chiqarishda maktabdagi muallim-ustozlar hamda Mudofaa vazirligi tizimidagi harbiy qismlardan biriktirilgan ayol harbiy xizmatchilarning o‘rni katta. Shu sabab ularga ham O‘zbekiston harbiy prokurorining faxriy yorlig‘i va sovg‘alari taqdim etildi. 44-umumta’lim maktabi direktori O‘razali Irmanovga tadbirning ramziy kubogi topshirildi.

“MANGUBERDI QIZLARI”

“Men vatanparvarman” shiori ostida o‘quvchi-qizlar o‘rtasida o‘tkazib kelinayotgan ko‘rik-tanlovning ikkinchi kuni Bekobodning Achamayli qishlog‘idagi 48-umumta’lim maktabida o‘ziga xos tayyorgarliklar ostida davom etdi. Dastlab davlat va jamoat tashkilotidan tashrif buyurgan vakillar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, ota-onalar va o‘quvchilar ko‘rik-tanlov ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan ko‘rgazmalar bilan tanishdi. Biz Hasanboy Usmonov direktorlik qilayotgan ushbu ta’lim dargohida ma’naviy-ma’rifiy ishlarga katta e’tibor qaratilayotganiga guvoh bo‘ldik. Bu borada ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari Iqboloy Erbo‘tayevaning g‘ayrat-shijoatiga tahsin aytsak, arziydi. Umrining qirq olti yilini yosh avlodning ta’lim-tarbiyasiga bag‘ishlagan ustoz boshchiligida ko‘rik-tanlov ishtirokchilari tomonidan tashkil etilgan ko‘rgazma barchaning e’tiborini tortdi. “To‘maris izdoshlari”, “Manguberdi qizlari” va “Amir Temur” guruhlariga birlashgan bilimdon qizlar milliy qadriyatlarimiz va an’analarimizga asoslangan o‘z ko‘rgazmalari bilan tadbirga ko‘tarinki ruh bag‘ishladi.

Bu ko‘tarinki kayfiyat o‘quvchi-qizlarning o‘zaro bellashuvida ham bo‘y ko‘rsatib turdi. Besh bosqichdan iborat har bir shart o‘ziga xoslikda, vatanparvarlik ruhida amalga oshirildi. Vatan haqidagi she’rlar bosqichida o‘qilgan nazmiy satrlar barchani millatparvarlik tuyg‘usiga oshno qildi.

Tadbir davomida Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy qism harbiy xizmatchilari jangovarlik ruhidagi ko‘rgazmali chiqishlarini namoyish etdi. Shuningdek, maktab o‘quvchilari tomonidan ham sahna ko‘rinishlari va kuy-qo‘shiq, raqslar ijro etildi. Tadbir so‘ngidagi e’tirof va sovg‘a-salomlar barchaning kayfiyatini ko‘tardi.

MIRZAOBODNING ZUKKO QIZLARI

Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanidagi 32-umumta’lim maktabi tomon yo‘lga otlandik. Mashinamiz oldinga qarab intiladi. Keng dalalar, paxtazorlar, adog‘i yo‘qdek ko‘ringan yaylovlar...

Manzilda bizni zamonaviy uylardan iborat ixchamgina qishloq qarshi oldi. Mehmonlarni intiq kutayotgan maktab o‘quvchilarining his-hayajoni beixtiyor bizga ham ko‘chdi. Axir necha oydan buyon tayyorlanayotgan o‘quvchi-qizlarning bilim va iqtidori bugun sinovdan o‘tadi. Tadbirni maktabgacha ta’lim tashkilotining jajji bolajonlari boshlab berdi. Harbiy libosdagi bolajonlar Vatan himoyachilariga xos harakatlari, chiqishlari bilan davraga xushkayfiyat ulashdi.

“Vatanparvar”, “Renessans” hamda “To‘maris izdoshlari”dan iborat uch guruhga birlashgan qizlar beshta shart bo‘yicha birin-ketin o‘z zakovatlarini namoyish etishga kirishdi. Tan olish joizki, ulardagi bilim, shijoat va iqtidorga havas qilsa, arziydi. Sahna ko‘rinishlari o‘ziga xos. Massagetlar malikasi To‘maris momomiz bilan bog‘liq voqealar, ona yurt va millat hurligi deb yonib yashagan, qatag‘on qurboni bo‘lgan jadid bobolarimizni sahnada gavdalantirish murakkab va zalvarli. Ammo zakovatli qizlarimiz buni uddaladi. Ularga qo‘shqanot bo‘lib turgan sinfdosh do‘stlariga ham tasanno, desak, arziydi.

Savol-javoblar shartida ham uchala guruh o‘quvchi-qizlari birdek yuqori ballni qo‘lga kiritdi. Bu ularning ilm borasida a’lochi ekanidan dalolat. Qizlarning “Tasviriy san’at” shartidagi g‘oyalari esa barchani lol qoldirdi. Ayniqsa, yurak ustiga chizilgan Vatan bayrog‘i tasviri tadbir ishtirokchilarida katta taassurot qoldirdi.

Tadbir yakunida ko‘rik-tanlovning bilimdon qizlari, ularning tayyorlanishiga zamin yaratgan maktab ma’muriyati, yaqindan ko‘mak bergan ustozlari va harbiy xizmatchilar munosib taqdirlandi.

Bir so‘z bilan aytganda, uch kun davomida yurtimizning chet hududlarida joylashgan uchta maktabda “Men vatanparvarman” shiori ostida o‘quvchi-qizlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan ko‘rik-tanlov o‘z qahramonlarini kashf etdi. Zukko qizlar ”To‘maris izdoshlari – millat tayanchi” shiorini yuraklariga muhrlaganidek, ular erta kelib, mamlakatimiz istiqboliga munosib ulush qo‘shadigan yetuk insonlar bo‘lishiga shubha yo‘q!

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”.
Adliya podpolkovnigi
Gulchehra TURSUNOVA,
O‘zbekiston Respublikasi
Harbiy prokurorining
katta yordamchisi

Armiya va yoshlar

ISTIQBOLIMIZ EGALARI HAMISHA E’TIBORDA



Toshkent shahri mudofaa ishlari boshqarmasida Mudofaa vazirligi tomonidan otaliqqa olingan yoshlar bilan ishlash tizimini yanada yaxshilash va jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha biriktirilgan harbiy xizmatchilar bilan tadbir tashkil etildi. Unda Toshkent harbiy okrugi qo‘shinlari qo‘mondoni, Toshkent shahri hokimligi va boshqa davlat hamda jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.



Ta’kidlash joizki, Toshkent shahri 1-sektorida joylashgan 148 mahalla fuqarolar yig‘inida jami 126 798 nafar yosh mavjud bo‘lib, shulardan 52 798 nafari Yoshlar ishlari agentligi tomonidan berilgan 7 ta toifa bo‘yicha otaliqqa olingan yoshlarni tashkil etadi. Ushbu vazifaga mas’ul etib biriktirilgan harbiy xizmatchilar “mahalla yettiligi” hamda biriktirilgan tashkilot rahbarlari bilan hamkorlikda 7 ta toifa bo‘yicha 47 283 nafar yoshni platformaga joylashtirdi.

Ayni vaqtda platforma bo‘yicha maktabni bitirgan va oliy ta’lim olgan yoshlarni o‘rganish ishlari amalga oshirilmoqda. Tarbiyasi og‘ir hamda jinoyatga moyil yoshlarga biriktirilgan vazirliklar rahbarlari bilan ularning muammolari o‘rganilib, hal etish jarayoni davom etmoqda. Tadbirda so‘z olgan mas’ullar shu kungacha bu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlarga to‘xtalib, batafsil ma’lumot berdi. Kelgusida qilinishi lozim bo‘lgan masalalar yuzasidan o‘zaro fikr almashdi.

Podpolkovnik
Xurshidjon SHERMATOV,
Toshkent shahri mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari

Uchrashuv

KONSTITUTSIYAM – BAXTIM, BAYROG‘IM – FAXRIM!

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun munosabati bilan harbiy prokuratura organlari tomonidan qator tadbirlar o‘tkazildi.



Shunday tadbirlardan biri Chirchiq harbiy prokuraturasi tomonidan Ichki ishlar vazirligiga qarashli harbiy qism qo‘mondonligi bilan hamkorlikda Bo‘stonliq tumani chegara oldi hududida joylashgan 5-, 8- va 12-umumta’lim maktablarida tashkil etildi.

“Mening Konstitutsiyam!” hamda “Bayrog‘im – g‘ururim, iftixorim!” shiori ostida kechgan mazkur ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar doirasida o‘quvchilar o‘rtasida “Zakovat” intellektual o‘yini hamda “Muqaddasdir Vatan bayrog‘i!” shiori ostida she’riyat tanlovi o‘tkazildi.

G‘oliblar diplom va kitoblar bilan taqdirlandi.

Adliya polkovnigi
Aziz MATYAKUBOV,
Chirchiq harbiy prokurorining o‘rinbosari

So‘ragan edingiz

HUQUQIY MASLAHAT



Savol: Konstitutsiyamizning 1-moddasida O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat, deb belgilangan. Shu norma haqida qisqacha tushuntirish bersangiz.

Javob: Yuqoridagi norma yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1-moddasining birinchi qismi hisoblanadi.

Bu konstitutsiyaviy norma haqida qisqacha tushuncha beradigan bo‘lsak, undagi suveren davlat tushunchasi O‘zbekiston mustaqilligining umumiy va ajralmas belgisi bo‘lib, ichki va tashqi siyosatda to‘liq mustaqil ekanini anglatadi.

Demokratik davlat esa xalq hokimiyatchiligiga va insonparvar qonunlariga asoslangan, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy holati va siyosiy qarashlaridan qat’i nazar, inson huquq va erkinliklarini ta’minlab beradigan davlat.

Huquqiy davlat o‘z faoliyatini, jamiyat va fuqarolarning yashash tarzini faqat Konstitutsiya va qonunlar asosidagina amalga oshirilishini ta’minlaydi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar qonun ustuvorligi asosida xalq uchun xizmat qiladi.

Ijtimoiy davlat har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan sifatli ta’lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyli bo‘lish sharoiti ta’minlangan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o‘z muammolari bilan yolg‘iz qolmaydigan adolatli va farovon davlatdir.

Dunyoviy davlat – diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan hamda davlat hokimiyati dindan ajratilgan, davlat boshqaruvi diniy qoidalar bilan emas, balki Konstitutsiya va qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan, qarorlar qabul qilishda diniy asoslarga tayanilmaydigan davlat hisoblanadi.

O‘zbekistonni dunyoviy davlat sifatida belgilash – dunyoviy taraqqiyot, turli din va mazhablar o‘rtasida bag‘rikenglik va totuvlikni mustahkamlashga, diniy birlashmalarning mustaqil faoliyat yuritishiga, din va e’tiqod erkinligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi prinsiplarni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan mexanizmlar va kafolatlar Konstitutsiyamizning boshqa barcha normalarida mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasi
Harbiy prokuraturasi
axborot xizmati

Jarayon

Bosh prokuror o‘rinbosari – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tomonidan Xorazm viloyatida o‘rganishlar olib borildi.

MUAMMOLAR O‘RGANILMOQDA

Xususan, shahar va tumanlarda yirik iste’molchilarning energiyani iqtisod qilish imkoniyatlari va energotejamkorlikni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga e’tibor qaratildi.

Jarayonda iste’molchilar uchun energiya tejovchi uskunalar ko‘rgazmasi tashkil etilib, ularning afzalliklari va imkoniyatlari yuzasidan mutaxassislar ishtirokida batafsil ma’lumotlar berildi.

Ijtimoiy soha obyektlarida, jumladan tibbiyot maskanlari va maktablarda qish mavsumiga tayyorgarlik va energiya samaradorligiga erishish bo‘yicha olib borilgan tadbirlar natijasi o‘rganildi.

Tashkil qilingan arzonlashtirilgan oziq-ovqat yarmarkasi ham hududda yashovchi fuqarolarning vaqti va mablag‘i tejalishiga imkon yaratdi.

Shu bilan birga, kam daromadli oilalar holidan xabar olinib, ularning muammolari joyida hal etildi.

Jarayonda nuroniy otaxonlar, faollar va yoshlar ishtirokida “Yashil makon” loyihasi doirasida ko‘chatlar ekilib, ekologik madaniyat va atrof tabiiy muhitni asrash masalalarida yoshlarga tushuntirishlar berildi.

O‘rganishlarda mas’ullarga tegishli ko‘rsatmalar berib o‘tildi.

Adliya podpolkovnigi Umid NIZAMOV,
Urganch harbiy prokurori

Tarixiy sana

SHONLI 106 YIL

Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti tashkil topganining 106 yilligiga bag‘ishlangan bayram tantanalari bo‘lib o‘tdi.

Oliy harbiy ta’lim muassasasining bu yilgi bayrami ham Mudofaa vazirligi mas’ullari, ofitserlar, faxriy mehmonlar ishtirokida tantanali tarzda o‘tkazildi.

Oliy harbiy ta’lim muassasasi boshlig‘i, Chirchiq shahri hokimi, faxriy ofitser va soha fidoyilarining bir-biridan iliq tilaklari, bugungi kundagi yutuqlar va ularning zamirida yotgan mehnat va intilishlar e’tirofi barchani birdek mamnun qildi.

Bayram sabab dargohning ko‘plab fidoyilari qimmatbaho sovg‘a va yuksak e’tiroflarga sazovor bo‘ldi.

Albatta, ushbu bilim yurti yurtimizga ne-ne vatanparvarlarni yetishtirib bermadi deysiz? O‘tgan yillar ushbu muassasani yanada rivojlantirib, yuksaltirdi.

O‘tmishga nazar solsak, 1966-yilda bilim yurtiga oliy o‘quv yurti maqomi berilib, o‘quv muddati 4 yil etib belgilandi va uning birinchi bitiruvchilari 1970-yilda ofitserlik hayotiga yo‘llanma oldi.

Mustaqillikning dastlabki yillari, ya’ni 1992-yil 14-yanvarda mamlakatimiz hududidagi barcha harbiy qismlar va muassasalarni O‘zbekiston tasarrufiga o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror qabul qilindi. Shu davrdan boshlab, bilim yurti hayotida yangi tarixiy sahifalar ochildi. 1993-yilda ushbu dargohga Chirchiq Oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti nomi berildi.

Mustaqillik yillarida Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar natijasida bilim yurti shtat tuzilmasi takomillashtirilib, ko‘p ixtisosli oliy harbiy ta’lim muassasasiga aylantirildi. Ushbu muassasadan 10 nafardan ortiq generallar, Mudofaa vazirlari, harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondonlari va qo‘shilma komandirlari yetishib chiqqan.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Mudofaa vazirligi rahbariyatining qo‘llab-quvvatlashi natijasida oliy harbiy ta’lim muassasasi hududida zamon talablariga mos ko‘p qavatli o‘quv binolari, 400 o‘ringa mo‘ljallangan kursantlar yotoqxonasi yangidan qurib topshirildi, qolgan bino va inshootlar kapital ta’mirlandi. Bundan tashqari, o‘quv jarayonida kursantlar foydalanishlari uchun zamonaviy ko‘rinishdagi o‘quv trenajyorlar o‘rnatildi, harbiy texnika va qurol-aslahalar bilan ta’minlandi.

Bugungi kunda oliy harbiy ta’lim muassasasining kursantlari umumharbiy sport o‘yinlarida va xalqaro olimpiadalarda yuqori natijalarga erishib kelmoqda.



Jumladan, joriy yilning oktabr oyida Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrugi poligonida o‘tkazilgan “Eng ilg‘or tank guruhi” ko‘rik-tanlovida faxrli 1-o‘rinni, “Eng ilg‘or ta’mirlash guruhi” ko‘rik-tanlovida faxrli 2-o‘rinni, Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug poligonida o‘tkazilgan “Eng ilg‘or zenit raketa guruhi” musobaqasida faxrli 3-o‘rinni egalladi.

Bundan tashqari, 2024-yil oktabr oyida Sharqiy harbiy okrug Farg‘ona umumqo‘shin dala-o‘quv maydonida “Men g‘olib!” shiori ostida o‘tkazilgan “Ilg‘or desant guruhi” armiya o‘yinlari musobaqasida faxrli 3-o‘rinni, Mudofaa vazirligi tog‘ tayyorgarligi o‘quv mashqlar markazi negizida o‘tkazilgan “Eng ilg‘or tog‘-ishg‘ol guruhi” musobaqasida oliy harbiy ta’lim muassasasi jamoasi faxrli 3-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

2024-yilning may oyida MDH davlatlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan xalqaro olimpiadada oliy harbiy ta’lim muassasasi jamoasi Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Xitoy Xalq Respublikalari jamoalari orasida faxrli 1-o‘rinni egalladi.

Xulosa qilib aytsak, ushbu yutuqlar oliy harbiy ta’lim muassasasi tantanalariga munosib sovg‘a bo‘lib, barchaning xotirasida o‘zining jozibasi va muvaffaqiyatlari bilan muhrlanib qoldi.

Kapitan Bobur ELMURODOV,
“Vatanparvar”

Ekskursiya

HARBIYLAR BILAN BIR KUN

Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug qo‘shinlarida Nukus shahrida faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalarining 400 dan ortiq talabalari uchun ochiq eshiklar kuni tashkil etildi.



Yoshlarda vatanparvarlik ruhini kuchaytirish, harbiy kasbga nisbatan g‘urur va iftixor hissini uyg‘otish, xalq va armiya yakdilligini ta’minlash maqsadida tashkil etilgan sayohat davomida talabalar harbiy okrug faoliyati, harbiy qismlarda askarlar uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Ekskursiya avvalida, o‘quvchilar Nukus garnizoni harbiy orkestrining musiqa sadolari ostida kutib olindi.



Shundan so‘ng Nukus garnizoni ma’naviyat va ma’rifat markazida “Uch avlod uchrashuvi” bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda ishtirok etgan Qurolli Kuchlar faxriylari harbiyning mashaqqatli va sharafli yo‘li haqida so‘zlab berdi. Yoshlarni bugungi kunning global muammolaridan biriga aylangan “ommaviy madaniyat”, din niqobi ostida jamiyatimizga bo‘lgan tahdidlardan ogoh bo‘lishga chaqirdi. Tinchlikning qadri baland, uni asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimiz ekani uqtirildi. Shundan so‘ng faxriylar va yoshlar birgalikda harbiy okrug tarixidan so‘zlovchi muzeyga tashrif buyurdi.

Harbiy qism hayoti, harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar ham sayohatchilarning e’tiboridan chetda qolmadi. Vatan himoyachilari bilan kechgan jonli muloqot davomida yoshlar, harbiy bo‘lish uchun nima qilish kerak, degan savoliga javob olishdi.

Harbiy qism saf maydonida harbiy orkestr jamoasining kuy va qo‘shiqlari, askarlar tomonidan tayyorlangan faxriy qorovul saf elementlari va qo‘l-jangi ko‘rgazmali chiqishlari tadbirga yanada jo‘shqin kayfiyat ulashdi.

Yoshlar sayohatdan bir olam taassurot bilan ortga qaytgani, shubhasiz. Bu kabi tadbirlar, yoshlar harbiy-vatanparvarlik ruhida kamol topishi, harbiy hayot bilan yaqindan tanishishi va kelgusida harbiy sohada xizmat qilishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati

NUTQ ODOBI VA MADANIYAT

jangovar ruh omili



Harbiy xizmatchilarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun-mohiyatini tizimli va izchil ravishda yetkazish hamda dunyoda va yon-atrofimizda sodir bo‘layotgan globallashuv jarayonlariga nisbatan ularda ongli munosabat va faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, burchga sadoqat, mas’uliyat, fidoyilik tuyg‘ularini oshirishda har bir komandirning o‘rni va undagi notiqlik mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Tinchlik sharoitida ham davlat boshqaruvi, hatto urush sharoitida ham qo‘shinni boshqarishda notiqlik san’atining alohida o‘rni bo‘lganiga uzoq asrlik tarix guvoh. Chunki ko‘zlangan maqsad – bu strategiya bo‘lsa, uni amalga oshirish yo‘llari – bu taktika. Demak, har qanday strategiyaning ta’sirchan mexanizmi – bu til taktikasi.

Komandirning notiqlik san’ati muhim ijtimoiy-siyosiy, harbiy-siyosiy ahamiyatga va qudratga ega bo‘lib, u harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini oshirishda ta’lim va tarbiya vositalaridan biridir.

Ma’lumki qadimda jamiyat tarixidan boshlab qo‘shinlarni boshqarishda notiqlik san’atiga jiddiy e’tibor berib kelingan. Notiqlik san’ati jamiyat taraqqiyotida, qo‘shinlarni boshqarishda turli davrlarda turlicha yo‘llar bilan rivojlanib kelgan. U qaysi davr va qaysi bosqichi bo‘lmasin, o‘sha davr – o‘sha tuzumning siyosiy-iqtisodiy asoslari va ma’naviy ehtiyoji bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan.

Notiqlik va harbiy sohadagi faoliyat o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Har qanday g‘alabani ta’minlash mezoni bevosita notiqlik mahorati bilan bog‘liq.

Mard va tadbirkor, san’atni sevgan kishigina qat’iy iroda, o‘z so‘ziga, fikriga ega inson bo‘lishi tayin. Shuning uchun harbiy sohada ham jonli manzaralar yaratuvchi, da’vatkor kuchga ega so‘zning o‘rni katta. To‘p-u zambaraklar, behisob qo‘shin eplay olmagan ishni oddiy so‘z bajara olganiga tarix shohid.

Maqolamizda komandirning nutq odobi va madaniyati borasida Kaykovusning “Qobusnoma” asarining ayrim jihatlariga e’tibor qaratamiz.

“Qobusnoma” XI asrning ajoyib tuhfasi. Ushbu nodir asarda nutq odobi va madaniyati masalasiga katta e’tibor berilib, hikmatli so‘z va qimmatli fikrlar bildirilgan. Har bir komandir mazkur “Qobusnoma” asarini ish stoliga qo‘yib, ushbu asarni o‘rganib, uni amalda qo‘llasa, faqat va faqat ijobiy natijalarga ega bo‘ladi. Bo‘linmani tinchlik va jangovar vaziyatda oldingi marralarni egallashiga sazovor bo‘ladi.

“Qobusnoma” Kaykovus tomonidan 1082–1083-yillarda yaratilgan bo‘lib, u 44 bobdan iborat. Kaykovus o‘z asarini o‘g‘liga bag‘ishlaydi. Bu haqda u shunday yozadi: *“O‘g‘lim, men qaridim”*. Asar o‘z farzandiga nasihat sifatida yozilgan bo‘lib, uni yoqimli, o‘rinli so‘zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. Asarning VI-VII boblari bilimni oshirish, so‘z odobi, notiqlik haqidadir:

“...Bilg‘ilkim, hamma hunardan so‘z hunari yaxshi, chunki boshqa jonivorlardan odam o‘n daraja ortiqdir va bu afzallik odamning badanida bordir;

beshi odam tanasining tashqi tomonida zohir bo‘ladi va beshi ichida yashiringandir;

shular: bir narsani yod qilmoq, hamisha esda saqlamoq, xayol qilish (taxayyul), farq qila bilish va nutq. Agar sening so‘zlagan nutqingda foydali bir narsaning hidi kelib turmasa, bunday so‘zning aytilmagani ma’qul. Bilimdonlar deganlar: so‘z bir maydir, undan bosh og‘rig‘i (xumor) paydo bo‘lur, so‘z bosh og‘rig‘iga darmon ham bo‘ladi”.

Kaykovus yaxshi va muloyim so‘zlashni o‘rganib, shuni odat qilib olishni va til bilan dilning bir xil fikr yuritishini nasihat qiladi. Uning fikricha: *“So‘zni o‘z joyida so‘zla, joyida aytilmagan so‘z, agar u yaxshi so‘z bo‘lsa ham yomon ko‘rinadi”*, deydi.

Insonning odob-axloqini belgilaydigan omillardan biri uning so‘zi, nutqidir. Kaykovus o‘z asarida shuni ta’kidlab: *“Ey farzand! So‘zning yuz va orqa tomonini bilg‘il, ularga rioya qilg‘il, so‘zlaganingda ma’noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so‘zning qanday ma’noga ega ekanini bilmasang, qushga o‘xshaysan, bunday qushni to‘ti deydilar!”* deb uqtiradi.

Kaykovus kishini suxandon bo‘lishi lozim ekanini ta’kidlab, notiqning so‘zi tushunarli va quruq gap bo‘lib qolmasligini bayon etadi: *“...shunday kishini notiq (suxango‘y) deymizki, uning har so‘zi xalqqa tushunarli bo‘lsin va xalqning har so‘zi unga ham ma’lum bo‘lsin. So‘zni juda qimmatli deb bilgil, chunki so‘z har narsa emasdir. Bilgan so‘zingni o‘z joyida ishlatgil...”*

Notiq har bir so‘zini o‘ylab, shoshmasdan fikr yuritishi kerak: *“Har ishda o‘rtacha bo‘lgil. Har so‘zni aytishda va har bir ishni qilishda chidamli bo‘l va shoshishdan qochgil...”*

Kaykovusning hisoblashicha, hukmdorning notiq va insonparvar bo‘lishi qo‘shinni doim jangovar holatda saqlashda, mustahkam intizom o‘rnatishda va g‘alabani ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. *“Hamma vaqt lashkarga xush so‘z aytgin va bir luqma non, bir kosa suv topsang, ular bilan baham ko‘rginki, bir parcha nonning qilgan ishini ko‘p zar va sarpolar qila olmasdur. Lashkarning ko‘nglini hamisha xushhol tutgin. Agar ular sendan jonini darig‘ tutmasin desang, ulardan sen noningni darig‘ tutmagin. Mabodo seni podshohlik sharafiga yetkazsa, podshohlik odatini yaxshi tutgin. Lashkarni qanday tarbiya qilsang, raiyatga (xalqqa) ham shunday mehribonlik ko‘rsatgin, toki mamlakat obod bo‘lsin”.*

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, “Qobusnoma” asari komandirning nutq odobi va madaniyatini yuksaltirishda, har bir so‘zini o‘ylab, shoshmasdan fikr yuritishida, har bir ishni qilishda, chidamli bo‘lishida, bu orqali bo‘linmada mustahkam intizom o‘rnatishda va jangovar ruhni yuksaltirishda muhim ilmiy asoslangan manbadir. Qo‘l ostidagi shaxsiy tarkibni boshqarishda komandir o‘z nutqi va madaniyati bilan bo‘ysunuvchilariga ibrat bo‘lishi lozim, shundagina u bo‘linmada yuksalish bo‘ladi.

Komandir bo‘linmasiga o‘z nutqi orqali ishonch ruhini bersa, u dadil harakat qiladi va zafar quchadi, aks holda mag‘lubiyatga uchraydi. Bu borada komandirga tavsiyalar:

- insonning odob-axloqini belgilaydigan omillardan biri uning so‘zi, nutqdir. Shunday ekan, komandir o‘z bo‘ysunuvchilari oldida gapirayotganida so‘zining qanday ma’noga ega ekanini bilishi lozim;
- komandirning har bir so‘zi o‘z bo‘ysunuvchilariga, bo‘ysunuvchilarning ham so‘zlari komandirga tushunarli bo‘lishi, bu borada u har bir so‘zni o‘ylab, shoshmasdan fikr yuritishi lozim;
- komandir o‘z bo‘ysunuvchilarini eshitishdan qochmasligi kerak, komandir so‘z eshitishi, boshqalarning nutqidan ham ibrat olishni bilishi lozim;
- har qanday g‘alabani ta’minlash mezoni bevosita komandirning notiqlik mahoratiga bog‘liqdir;
- yaxshi nutq egasi – o‘quvli, qat’iyatli, o‘ziga ishongan bo‘lishi darkor, chunki harbiy notiqlik bu katta kuchdir;
- komandirning nutqiy mahorati yuqori bo‘lsa, shaxsiy tarkib orasidagi sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan parokandalikning va tarqoqlikning oldi olinadi;
- komandir o‘z faoliyatida notiqlik borasida, kimga, nima haqda, qachon, qayerda, qanday qilib, muhimi, qancha aytishni taqozo qiladigan san’at mohiyatini biladigan va amalda qo‘llay olgan shaxs bo‘lishi kerak;
- harbiy-vatanparvarlik nutqi jangovar kurashga qaratilgan, yuqori vatanparvarlik g‘oyasi bilan yo‘g‘rilgan, siyosiy xarakteri va Vatani hamda o‘z xalqiga sadoqat ruhida sug‘orilganligi bilan xarakterlanadigan, shaxsiy botirlik, ommaviy mardlik ko‘rsatishni talab qiladigan nutqdir.

Bu nutq ko‘rinishi boshqa nutq ko‘rinishlaridan o‘zining ta’sirchanligi, jangovar ruh va ko‘tarinki kayfiyatdaligi, Vatanga sadoqat ruhidaligi bilan keskin farqlanadi.

Podpolkovnik
Akromjon SHOXAKIMOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
katta o‘qituvchisi, *(PhD)*

Tashrif

O‘QUVCHILAR HARBIY AVIATSIYA INSTITUTIDA

An’anaga muvofiq Farg‘ona “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyi o‘quvchilari O‘zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya institutida 3 kunlik amaliy-o‘quv mashg‘ulotlarda ishtirok etib, kursantlar uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.



Xususan, o‘quvchilar kursantlarning ta’lim olish jarayoni, parvozoldi va parvoz mashg‘ulotlarini kuzatishdi. Simulyatsion markaz va trenajyor tayyorgarlik markazi imkoniyatlaridan foydalanishdi. Albatta, real parvoz amaliyoti ularda katta taassurot qoldirdi.

Shuningdek, tashrif davomida kursantlar, harbiy uchuvchilar va nafaqadagi harbiy aviatorlar bilan o‘tkazilgan “Uch avlod uchrashuvi” davra suhbatida ham ishtirok etishdi. Faxriylarning jasorat va matonatga yo‘g‘rilgan xizmat faoliyati, bilimi va tajribalaridan o‘zlariga kerakli xulosalar chiqargan bo‘lsa, kursantlar va “Temurbeklar maktabi”ning “Aviamodelchilar to‘garagi” a’zolari tomonidan yasalgan uchish apparatlari modellari o‘rtasida o‘tkazilgan musobaqa faxriylarga va boshqa mehmonlarga o‘zgacha kayfiyat bag‘ishladi.

Tadbirning so‘nggi kunida o‘quvchi-yoshlar uchun Qashqadaryo viloyatining diqqatga sazovor maskanlari, tarixiy qadamjolar va muzeylarga sayohat uyushtirildi.

Mayor Boburmirzo SOLIYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya instituti

Anjuman



Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtida “Zamonaviy qurolli mojarolarda artilleriyani jangovar qo‘llash tajribalari” mavzusida Respublika harbiy-ilmiy anjumani o‘tkazildi. Unda olimlar, ekspertlar, oliy harbiy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, izlanuvchilar va kursantlar ishtirok etdi.

YANGI TAJRIBALAR O‘RTOQLASHILDI

Ta’kidlash kerakki, bugun shiddat bilan o‘zgarib, tobora keskinlashib borayotgan zamonda tinchlikni asrab-avaylash o‘ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois ham milliy armiyamizning jangovar imkoniyatlarini yanada oshirish, Vatan posbonlarining har qanday vaziyatda ham qo‘yilgan topshiriqlarni tezkor va aniq bajarish borasidagi ko‘nikmalarini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu anjumanda o‘z ma’ruzalari bilan qatnashgan ishtirokchilar shu xususida alohida ta’kidlar ekan, xavfsizlik va barqarorlik hamda global muammolarning mohiyati, jahonda va mintaqada kuzatilayotgan qurolli to‘qnashuvlarda, ayniqsa, artilleriya qurollarini qo‘llash usullarini tahlil etishdi.

Shuningdek, anjuman davomida soha vakillarining bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirish, ularni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro tajriba almashish, harbiy kadrlarni tayyorlash, harbiy ilm-fan va texnologiyalari sohasida hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha fikr-mulohazalar ham o’rtoqlashildi.

Kapitan Shohrux SAIDOV

E’tirof

Joriy yilda ibratli xizmat faoliyati uchun bir guruh Ichki ishlar organlari xodimlari Prezidentimiz farmoniga asosan, yuksak mukofotlar bilan taqdirlandi. Ular qatorida Navoiy shahri Ichki ishlar boshqarmasi huzuridagi tergov bo‘limi katta tergovchisi, podpolkovnik Marhabo Hojiyeva ham “Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan mukofotlandi.

YUKSAK MUKOFOT — YANGI YUTUQLARGA RAG‘BAT!

– Ichki ishlar sohasidagi xizmat faoliyatimni 1997-yildan boshlaganman, – deydi Marhabo Hojiyeva. – Bu kasbga bo‘lgan muhabbatim sababchisi otam – iste’fodagi mayor Hikmatillo Hojiyev bo‘ladi. Otam Nurota tumani IIBda 30 yildan ziyod ishlagan. Maktabda o‘qib yurgan kezlarimda, otamning militsiya formasiga havasim yuqoriligi bois men ham katta bo‘lib, albatta ota kasbining davomchisi bo‘laman deb, niyat qilgandim. Onajonim, Xursan Ibragimova ta’lim sohasida faoliyat yuritgani bois opalarim ham ta’lim sohasini tanlashgan. To‘g‘risi, yaqinlarim mening ichki ishlar sohasida o‘qishimga biroz qarshilik qilgan. “Qiz bolaga qiyinlik qiladi, boshqa kasbni tanlagin” deb maslahat berganlar. Yoshlik yillarimdan ushbu sohaga bo‘lgan mehrim yuqoriligi sababli keyinchalik meni tushunib, duolari bilan qo‘llab-quvvatlashgan. 1993-yilda maktabni a’lo baholar bilan tamomlab, o‘sha yili O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasiga o‘qishga qabul qilindim. 1997-yilning iyun oyida “Tergov yo‘nalishi mutaxassisligi” yo‘nalishida imtiyozli diplom bilan o‘qishni tamomlab, oliy ma’lumotli huquqshunos bo‘ldim.



Hozirda oilam, farzandlarim ham doim meni qo‘llab-quvvatlaydi. Umr yo‘ldoshim Qahramon Muhammatov ham Ichki ishlar organlarida xizmat qilgan. 4 nafar farzandimiz bor. To‘ng‘ich farzandim Muhammadali Hakimov biz singari kasbimizning davomchisi bo‘lib, ushbu sohada xizmat qilmoqda. Qolgan farzandlarimizning orzusi ham kelajakda ichki ishlar sohasida ishlab, Vatanimiz tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida xizmat olib borish.

Ma’lumki, Marhabo Hojiyeva jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, ularga qarshi kurashish, tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rish, jinoyat ishlari yuzasidan tergov olib borish, fuqarolarning haq-huquqlarini munosib himoya qilishda sidqidildan mehnat qilib kelmoqda. Shuningdek, sohadagi yosh xodimlarga hayot va ish tajribalarini o‘rgatib, ularga o‘z kasbiga bo‘lgan sadoqatni mustahkamlash hamda sodiq xizmat qilish yuzasidan ham maslahatlar berib kelmoqda.



– Men uchun 2024-yil esda qolarli yil bo‘ldi, chunki Ichki ishlar organlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda 25-oktabr – Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan Prezidentimizning farmoniga binoan yuksak davlat mukofoti bilan taqdirlandim. Bu mukofot kelgusi faoliyatimga rag‘bat uyg‘otib, kuch-g‘ayrat hamda shijoat bilan ishlashimga undaydi, – deydi podpolkovnik Marhabo Hojiyeva.

– Onajonim Marhabo Hojiyevaning mehnatlari Prezidentimiz tomonidan yuksak e’tirof etilgani oilamiz uchun quvonarli hamda esda qolarli voqea bo‘ldi, – deydi Navoiy viloyati IIBning Jamoat xavfsizlik xizmati, jamoat tartibini saqlash boshqarmasi maxsus qabulxonasining mehnatga jalb qilish katta inspektori Muhammadali Hakimov. – Ota-onamning kasbiga bo‘lgan qiziqishim yuqoriligi bois 2023-yildan Ichki ishlar organlari safida mehnat faoliyatimni boshladim. Oilamizda singillarim Mehrigiyo, Mohichehra va ukam Ulug‘bek ham shu sohaga qiziqadi.

Onajonim oilada biz farzandlariga juda mehribon va shirinso‘z. Ular haqida qancha gapirsam ham oz. Mening birdan bir maqsadim ota-onam orzusidagi farzand bo‘lish. Fursatdan foydalanib, onajonimni yutuqlari bilan samimiy qutlayman. Biz farzandlari baxtiga doim sog‘-salomat bo‘lsinlar.

Shu o‘rinda biz ham podpolkovnik Marhabo Hojiyevani yuksak mukofot bilan tabriklab, Vatanimiz va xalqimizga fidokorona xizmatlarida mustahkam sog‘lik, kuch-quvvat va ulkan zafarlar tilaymiz.

Dilafruz XALILOVA,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi

ZOTILJAM XAVFLIMI?

> Kuz-qish oylarida ko‘pchilik shamollash yoki grippdan aziyat chekadi. Shamollash kasalliklaridan yetarli darajada davolanmaganda og‘ir respirator asoratlar rivojlanishi va yuqori nafas yo‘llarining yallig‘lanishi yoki zotiljam kasalligini keltirib chiqarishi mumkin.



Zotiljam kasalligining havfi, kasallikdan keyingi asoratlarning hamda kasallik tufayli o‘lim darajasining yuqoriligi bilan belgilanadi. Aholining o‘limi sabablari orasida bu kasallik, yurak qon-tomir kasalliklari, xavfli o‘smalar, o‘tkir travma va zaharlanishdan keyin to‘rtinchi o‘rinda turadi.

Zotiljam o‘pka to‘qimalarining o‘tkir yallig‘lanishi bilan kechuvchi, o‘pkaning bir bo‘lagini yoki butunlay qamrab oluvchi, ba’zi hollarda og‘ir kechuvchi kasallikdir. Zotiljam kasalligini ko‘pincha pnevmokokklar chaqiradi, shuning uchun tibbiyotda pnevmoniya kasalligi deyiladi, lekin zotiljam kasalligini viruslar, stafilokokklar, ichak tayoqchalari va mikoplazmalar ham chaqirishi mumkin.



Ko‘pincha pnevmokokklar havodagi tomchilar orqali yuqadi. Kasallangan kishi aksirganda yoki yo‘talganida qo‘zg‘atuvchilar havo orqali sog‘lom kishilarga o‘tishi mumkin. Bu kasallik jamoat joylarida tez tarqaladi. Shuning uchun uyushgan jamoalarda ehtiyot choralarini ko‘rish juda muhim.

Zotiljam ko‘pincha yuqori nafas yo‘llari kasalliklarining asorati sifatida rivojlanadi. Vaqtida davolanmagan gripp, bronxit, faringit, laringit, tonzillit va shunga o‘xshash o‘tkir respirator kasalliklar ham zotiljam bilan kasallanishga olib keladi. Immunitet yetishmovchiligi bo‘lganlarda, tana vazni kam bo‘lganlarda, kuchli sovuqqotish oqibatida ham bu kasallik kuzatiladi.

Kasallik odatda to‘satdan boshlanadi va quyidagi klinik ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Tomoq og‘rishi – bemor tomoq sohasida qattiq og‘riq va qichishishni sezadi.

2. Yuqori harorat – tana harorati 38-40°C gacha ko‘tariladi, bu esa tana infeksiyaga qarshi kurashayotganini anglatadi.

3. Bosh og‘rishi va umumiy holsizlik – infeksiya tana bo‘ylab tarqalganida charchoq va bosh og‘rig‘i paydo bo‘ladi.

4. Nafas olishning qiyinlashuvi – nafas yo‘llaridagi yallig‘lanish tufayli nafas olish qiyinlashadi.

Kasallik qo‘zg‘atuvchilari nafas yoki qon orqali o‘pka to‘qimasiga o‘tib yallig‘lanish o‘choqlarini paydo qiladi. Bu esa o‘z navbatida o‘pkada havo o‘tish yo‘llarining torayishiga, qondagi kislorod miqdorining kamayishiga olib keladi. Qonda kislorod miqdori kamayib karbonat angidrid gazining miqdori ortishi hisobiga markaziy asab tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, nafas yetishmovchiligi, organizmda moddalar almashinuvi buzilishi, markaziy asab tizimi, yurak qon-tomir tizimi, buyrak va jigar faoliyatining buzilishiga olib keladi.

Kasallik qancha tez aniqlanib, davo choralari tez boshlansa samara shuncha yaxshi bo‘ladi. Bemor ko‘proq suyuqlik *(suv, sut, choy, namatak damlamasi, sharbat)* ichishi kerak. Agar bemor ko‘p terlasa, ichki kiyimlarini tez-tez almashtirish lozim. Shifokorga kech murojaat etish va pirovardiga yetkazib davolanmaslik zotiljamning og‘irlashuviga sabab bo‘ladi.



Zotiljamning asoratlari ko‘pincha organizmda qo‘zg‘atuvchi toksinlarning tarqalishi natijasida yuzaga keladi:

Miokardit *(yurak mushaklarining yallig‘lanishi)* – yurak mushaklariga zarar yetishi sababli yurak faoliyati buziladi, hatto yurak yetishmovchiligi xavfi ortadi.

Nevrologik asoratlar – asab tizimining zararlanishi tufayli yuz mushaklari va yutish harakatlari zaiflashadi.

Nafas olish yo‘llarining to‘silishi – yallig‘lanish jarayoni nafas yo‘llarini to‘sib qo‘yishi natijasida nafas olish og‘irlashadi va shoshilinch tibbiy yordamni talab qiladi.

Zotiljam kasalligi profilaktikasida immunitetni oshirish, tanani chiniqtirish, mavsumiy kasalliklardan saqlanish, kasallikka qarshi emlash asosiy o‘rin tutadi.

Immunitetni oshirish: to‘g‘ri ovqatlanish, meva-sabzavotlarga boy bo‘lgan ovqatlarni iste’mol qilish, vitamin va mineral komplekslari *(shifokor tavsiyasiga ko‘ra)* qabul qilish orqali infeksiyalarga qarshi chidamlilikni oshirish mumkin.

Jismoniy faollik va toza havoda sayr qilish: kun tartibiga rioya etish, jismoniy mashg‘ulotlar, toza havoda sayr qilish, ish joylarida va umumiy yotoqxonalarda havo hajmining yetarli bo‘lishi, yotoqxonalarda toza havo va namlik darajasi me’yorda bo‘lishi lozim. Chunki xona havosining yuqori darajada namligi mikroorganizmlarning ko‘payishiga olib keladi, namlik darajasining pastligi esa allergik kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Qishki mavsumda gripp yoki boshqa o‘tkir respirator infeksiyalardan saqlanish lozim: buning uchun bemorlarni o‘z vaqtida alohidalash, niqob taqish, ommaviy yig‘ilishlarni cheklash, sovuqqotishdan saqlanish, muntazam tibbiy ko‘riklarni tashkil etish talab etiladi.

Profilaktik tekshiruvlar: harbiylar orasida muntazam tibbiy ko‘riklarni o‘tkazish kasalliklarni erta aniqlash imkonini beradi. Shu orqali zotiljam yoki boshqa respirator infeksiyalarni o‘z vaqtida aniqlash va davolash mumkin.

Zotiljam kasalligi profilaktikasida unga qarshi emlash eng samarali usul hisoblanadi. Hozirgi kunda milliy emlash kalendariga asosan, chaqaloqlarni 2 va 3 oyligida hamda 1 yoshga to‘lganda emlash yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, shuning samarasi tufayli chaqaloqlar orasida zotiljam tufayli o‘lim darajasining keskin kamayishiga erishildi.

Tibbiy xizmat podpolkovnigi
Alimurod SHONAZAROV,
Markaziy harbiy klinik gospitali
bo‘lim boshlig‘i.
Tibbiy xizmat leytenanti
Shaxrillo XOLOV,
Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot
akademiyasi internatura tinglovchisi

Ayollar bekati

Kir yuvish mashinalarining paydo bo‘lishi hayotimizga yengillik olib kirdi. Ayniqsa, ishdan charchab kelganingizda kuch ham, e’tibor ham talab qilmaydigan bu uskuna kiyimlaringizni osongina yuvib, mushkulingizni oson qiladi. Lekin ba’zida oq choyshablar orasiga nogahon qo‘shilib qolgan bolalar paypoqchasi tufayli ularning rangi boshqa tusga kirib qolishi mumkin. Yoki bolalar kiyimidagi meva sharbati dog‘lari ko‘nglingizni xira qiladi. Anglaganingizdek bugun sahifamizda kiyimdagi dog‘larni ketkazish yo‘llari haqida ma’lumot beramiz.



Kiyimlarni dog‘lardan tozalaymiz

Kiyimlarni oqartirishdan oldin avvalo, mato turiga e’tibor bering. Undagi yorliqlar kiyimni qanday haroratda yuvish mumkinligi to‘g‘risida ma’lumot beradi. Bu muhim, chunki oqartiruvchi vositalarning ko‘pchiligi qaynoq suv bilan ishlatiladi. Misol uchun, sintetik matoni qaynoq suvda yuvish mumkin emas.

Agar qimmat yoki nozik matoli kiyimingizni tozalashda tajriba qilishdan qo‘rqsangiz, kimyoviy tozalashga berganingiz ma’qul.

Hozirgi kunda do‘kon rastalarida tarkibida xlor yoki kislorod bo‘lgan turli xildagi oqartiruvchi vositalar mavjud. Xlorli vositalar leon, paxtali choyshablar va oq kiyimlarni juda yaxshi oqartiradi, lekin uni rangli kiyimlar uchun ishlatib bo‘lmaydi.

Kislorodli oqartiruvchi vositalar turli rangdagi, hatto nozik matoli kiyimlarga ham to‘g‘ri kelaveradi. Bunday vositalar yuqori haroratda ishlov berishni ham talab qilmaydi. Lekin barcha oqartiruvchi vositalarning ishlatilishi turlicha.

Ko‘pincha kiyimlarni oqartiruvchi vositadan qo‘shib, bir necha soatga ivitib yuvish yaxshi samara beradi. Agar matodagi dog‘larning ketishi qiyin bo‘lsa, oqartiruvchi vositadan qo‘shib 15 daqiqa davomida qaynating, keyin esa kir yuvish kukunidan solib, mashinada yuving.

Xo‘jalik sovuni va iste’mol sodasi bilan kiyimlarni juda yaxshi oqartirish mumkin. Buning uchun suvga qirg‘ichdan chiqarilgan sovun va soda aralashtirib kiyimlarni bir necha soatga ivitib, keyin past olovda qaynating. So‘ngra toza bo‘lguncha toza suvda chayqab oling.

Borat kislotasi kiyimlar dog‘ini ketkazmasa-da, uni asl holatiga keltirishga yordam beradi. Rangi uniqib qolgan sochiq yoki choyshabni 2 litr suvga 2 osh qoshiqda borat kislotasini solib, ivitib qo‘ying. So‘ngra mashinada yuvishni davom ettiring.

Perekis vodorod, nashatir spirti hamda iste’mol sodasi aralashmasi yordamida kiyimlar rangini tiniqlashtirib, asl holatiga qaytarish mumkin. Buning uchun xuddi yuqoridagidek, 3 litr suvga 3 osh qoshiq soda, 2 osh qoshiq perekis va 2 osh qoshiq nashatir spirti aralashmasiga kiyimlarni bir necha soatga ivitib, so‘ngra kir yuvish kukuni bilan yuvish lozim.

Oq rangli kiyimlar rangini yo‘qotmasligi uchun avvalo yuvishda e’tiborli bo‘ling. Ularni rangli kiyimlar bilan aslo yuva ko‘rmang.

Har doim kiyimlarni mato turiga qarab saralang. Yuqori harorat leon va paxtali matolar uchun samarali. Sintetik mato esa issiq suvda sarg‘ayib qolishi mumkin.

Kir yuvish mashinasiga solishdan oldin kiyim cho‘ntaklarini tekshirishga erinmang. Choyshablarni teskari o‘girib, silkitib, burchaklarini yig‘ilib qolgan gardlardan tozalab, keyin soling. Bu uskunani uzoq vaqt beminnat ishlashiga va eng asosiysi, kiyimlaringizning toza yuvilishiga yordam beradi.



Anorning foydasi

Anor qadimdan Sharqda barcha mevalarning shohi hisoblangan. U mineral, vitamin va aminokislotalar xazinasidir.



Anor kam kaloriyali mahsulot, shuning uchun parhezga amal qiluvchi va tanasining holatiga e’tibor beruvchilar uchun ideal darajadagi meva. Quvvat darajasi kamligiga qaramay *(100 g mahsulotda bor-yo‘g‘i 55 kkl)*, inson salomatligi uchun juda foydali. Yorqin va sersuv meva C, P vitaminlariga boy. Shuningdek, uning tarkibida B guruhi vitaminlari B6 va B12 hamda kaliy, kalsiy, fosfor hamda yod, temir minerallari ham bor. Vitaminlarning bunday birikmasi asab tizimi uchun foydali.

Anor tarkibida dezinfeksiya ta’sirini ko‘rsatuvchi moddalar bo‘lib, u ich ketishiga qarshi kurashishda yordam beradi. Gemoglobin miqdorini va gormonlar *(ichki sekretsiya bezlari)* faolligini oshiradi, qon bosimini pasaytiradi, og‘iz va tomoqni zararli mikroblardan tozalaydi, insulin o‘rnini bosadi hamda terini davolaydi.

Inson organizmi uchun anor sharbatining ham ahamiyati juda katta. Uni kamqonlik, ateroskleroz, nafas olish yo‘llari infeksiyalari, bronxial astma, angina, radioaktiv nurlanishdan xastalangan insonlarga ichish tavsiya etiladi.

Anor po‘sti choyga qo‘shib ichilsa, uyqusizlik va stress holatida bo‘lgan insonlarga foyda beradi. Yana tomog‘ingiz og‘rib qolsa, anor po‘stini qaynatib, uning suvida chaysangiz infeksiyalarni yo‘qotadi.

ANORLI SALAT

Kerakli masalliqlar: tovuq go‘shti – 200 g, yong‘oq – 150 g, kashnich – 1 bog‘, anor – 1 dona, ta’bga ko‘ra sarimsoq, tuz, murch, mayonez.

Tayyorlanishi: tovuq go‘shtini mayda qilib qo‘lda titib chiqamiz, yong‘oqni maydalaymiz. Ko‘katni ham to‘g‘rab olamiz. Hamma masalliqlarga anorni tozalab qoshamiz, sarimsoqni qirg‘ichdan chiqarib solamiz. Ta’bga ko‘ra tuz, murch va mayonez solib, yaxshilab aralashtiramiz. Dasturxonga tortishdan oldin, anor donalari va yong‘oq bilan bezatish mumkin.

Yoqimli ishtaha!



Sahifani Mastura Qurbonova tayyorladi.

REKLAMA REKLAMA REKLAMA

VATANPARVARLIK G‘OYALARI TARG‘IBOTI

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Tuproqqal’a tumani Pitnak o‘quv sport-texnika klubi jamoasi tomonidan harbiy-vatanparvarlik g‘oyasini targ‘ib etish, ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.





Ayniqsa, bunday ishlar ko‘lami “Vatanparvar” tashkiloti tashkil etilganining 33 yilligi munosabati bilan yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, tuman mudofaa ishlari, maktab va maktabgacha ta’lim bo‘limlari, harbiy qismlar hamda ma’naviyat va targ‘ibot markazlarining tuman bo‘limlari bilan hamkorlikda turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazildi.

– Yaqinda tashkil etilgan “Vatanparvar” tashkiloti – mening tanlovim!” shiori ostida bo‘lib o‘tgan tadbir ham muhim sanaga bag‘ishlandi, – deydi O‘STK boshlig‘i Azamat Saidamatov. – Unda tumandagi umumta’lim maktablari o‘quvchilari “Vatan tayanchi” otryadi a’zolari va mahalla yoshlari ishtirok etdi. Tadbirda soha xodimlari tashkilot tarixi va ayni paytda harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida qatnashchilarga so‘zlab berdi. Shuningdek, klubda tayyorlanayotgan turli toifadagi avtomototransport vositalari haydovchilari, texnik kasb egalari va muvaffaqiyatli sportchilar viloyatimiz sharafini nufuzli musobaqalarda himoya qilgani to‘g‘risida batafsil ma’lumot berildi.



Tadbirda ishtirok etgan o‘quvchi-yoshlar “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Yozgi biatlon”, “Karting” va “Aviamodel” kabi texnik va amaliy sport turlari bo‘yicha tashkil etilgan seksiyalarning ko‘rgazmalari bilan ham tanishdi. Albatta, bunday tadbirlar yoshlarimiz qalbida ona Vatanga muhabbat va sadoqat hissini, harbiy-vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunga kelib, “B”, “BC” toifali malakali haydovchilar tayyorlash sifatini oshirish, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish borasida ham tashkilotda katta tajriba to‘plangan. O‘STK jamoasi tarkibida tajribali, bilimdon, o‘z kasbining o‘qituvchilari hamda amaliy boshqarishni o‘rgatuvchi-ustalar talaygina. Albatta, o‘z kasbining ustalaridan ta’lim-tarbiya olgan shogirdlarning bilim va malakasi yuqori bo‘lishi shubhasizdir.

Tuproqqal’a tumani Pitnak o‘quv sport-texika klubi jamoasi barcha vatanparvarchilarni, tashkilot a’zolarini va mehnat faxriylarini 23-noyabr – “Vatanparvar” tashkiloti kuni bilan muborakbod etadi.



Ta’kidlash joizki, keyingi yillarda Sayxunobod tumanida ham yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning sog‘lom va barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishlari uchun ko‘plab tadbirlar amalga oshirilib, sportning texnik va amaliy turlarini keng ommalashtirishga va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.



E’TIBORGA MOLIK ISHLAR

Xususan, bu borada O‘zbekiston mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi tuman o‘quv sport-texnika klubida amalga oshirilayotgan ishlar ham e’tiborga molik bo‘lmoqda. Chunonchi, klubda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk insonlar sifatida kamol topishlariga ham muhim e’tibor qaratib kelmoqda. Shuning uchun “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Yozgi biatlon” kabi sportning texnik va amaliy turlaridan seksiya va to‘garaklar ishlab turibdi. Buning natijasi o‘laroq, tizim tashkilotlari o‘rtasida o‘tkazilayotgan turli yo‘nalishlardagi musobaqalarda sayxunobodliklar muvaffaqiyat qozonib, faxrli o‘rinlarni egallab kelmoqda.

– Yoshlarimizning nafaqat jismonan, balki ma’naviy jihatdan ham barkamol bo‘lib shakllanishlari muhimdir, – deydi O‘STK boshlig‘i Farhod Xusanov. – Shu bois ma’naviy-ma’rifiy va harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti doirasida turli tadbirlar o‘tkazilmoqda. Bunday tadbirlar, ayniqsa “Vatanparvar” tashkiloti tashkil topganining 33 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilayotgani yanada quvonchli. Jumladan, “Vatanparvar” tashkiloti – mening tanlovim!” shiori ostida bo‘lib o‘tgan tadbirlar shular jumlasidan. Yoshlarimizning ona Vatanga muhabbatli, jasur va dovyurak yigitlar bo‘lib yetishishida bunday tadbirlar ham salmoqli hissa qo‘shadi. Shu bois tashkilot ishini hozirgi zamon talablari asosida tashkil etib, bor imkoniyatlarni ishga solishimiz lozim. Tashkil etilayotgan ko‘rgazmali barcha tadbir va musobaqalarda yoshlarimizning faol ishtiroki hamda yutuqlari tashkilot nufuzi yuksalib borayotganidan dalolat beradi.



Ayni paytda klubda yoshlar uchun hayotda kerak bo‘ladigan kasblardan tashqari, “B”, “BC” toifali haydovchilar tayyorlash ishlari ham zamon talablari asosida tashkil etilgan. O‘STKda faoliyat ko‘rsatayotgan ko‘p yillik boy tajribaga ega malakali mutaxassislar faoliyati haydovchilar tayyorlash tizimining takomillashuviga munosib hissa qo‘shmoqda.



Sayxunobod tumani o‘quv sport-texnika klubi jamoasi barcha hamkasblarini 23-noyabr – “Vatanparvar” tashkiloti kuni bilan qizg‘in muborakbod etadi.

Yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdek ezgu ishlaringizda omad tilaymiz!

Akbar ALLAMURODOV

REKLAMA REKLAMA REKLAMA

ELNING MURODINI KO‘ZLAGAN BOBUR



Amal ilm bilan mustahkam va manfaatli, degan qoidani qat’iy tutgan shoir, “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining qo‘shinlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, kapitan Bobur Elmurodov yana bir marrani egallab, ijodiy jamoamizdagi ilmiy tadqiqotchilar sonini bittaga ko‘paytirdi. Hamkasbimiz harbiy xizmat majburiyatlarini bajarish bilan birga Qurolli Kuchlar akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi sifatida izlanishlar olib bordi. U yaqinda “Jasorat” fenomenini shakllantirishda o‘zbek epik dostonlari: strukturaviy-funksional yondashuv” mavzusidagi dissertatsiya ishini himoya qilib, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo‘ldi.





Husayn Voiz KOSHIFIY

KURASH – AMAL BILAN ZICH BOG‘LIQ ILM

Bilginki, kurash odamlar ko‘p qiziqadigan hamda sultonlar, shohlarga maqbul bo‘lgan hunarlardandir. Bu ish bilan shug‘ullanuvchi kishilar har qanday vaziyatda to‘g‘rilik va poklik qonuniyati bilan yashaydilar.

Agar kurashda asl mohiyat nima, deb so‘rasalar, ushbu hunarning ilmi deb javob bergin.

Agar kuch-quvvat qanaqa narsa, deb so‘rasalar, aytginki, kuch-quvvatning e’tibori yo‘q, zero hayvonlarda kuch juda ko‘p, ammo ularda ilm-u donish *(insoniy fazilat)* yo‘q, shuning uchun ular hurmatga loyiq emaslar.

Agar ilm bilan qo‘shilgan kuch qanaqa narsa, deb so‘rasalar, bu g‘oyat e’tiborli va tahsinga sazovor narsa, deb ayt. Zero ulug‘lar deydilarki: *“Bilimsiz kuch adli yo‘q shohdir, quvvati yo‘q ilm esa adolatli, lekin lashkari yo‘q shoh kabidir”*. Va agar ilm bilan kuch o‘zaro muvofiq kelsa, muvaffaqiyatga erishish yo‘li ochiqdir.

Agar kurash tushish ilmmi yoki amalmi, deb so‘rasalar, javob berib aytginki, amal bilan zich bog‘liq ilmdir.

“Ular kattalariga itoat qiluvchilarning eng yaxshisi, yoshi ulug‘lariga xizmatda eng xokisordirlar. Xalifalar shu sababdan Movarounnahrdan er kishilarini yonlariga chaqirtirib oladilar. Qo‘rqmasligi, jur’ati, shijoati va jasorati bilan boshqa xalqlardan ajralib turgani uchun ularning qo‘shini turklardan edi”. Bu e’tirof X asr tarixchisi Istaxriyga tegishli bo‘lib, “O‘lkalar va yo‘llar kitobi”da bitilgan. Boburning tadqiqotida tahlil qilingan mavzu Istaxriy e’tirofini yanada oydinlashtiradi.

Tadqiqotda xalqimiz bosib o‘tgan katta tarix voqealari, jang manzaralari, qo‘shin va yengilmas askarlar ruhiyati o‘zbek xalq dostonlari orqali qalamga olingan. Xususan, xalq dostonlaridagi jang lavhalari, qahramonlik, vatanparvarlik motivlari asoslari tarixiy voqealarga bog‘liq holda tahlil qilingan ilmiy ishda “Yusuf bilan Ahmad”, “Alibek bilan Bolibek” jangnoma dostonlari asos vazifasini bajargan. Jarayonda shaxs ma’naviyati, jangovarlik salohiyati, jasorat va jang motivi ildizlariga nazar tashlanadi. Qahramonlardagi vatanparvarlik ruhi, axloqiy qiyofa, jangovar vazifalarni bajarishdagi ishonch va e’tiqod aynan jasoratni yuzaga chiqarishi va natijada ezgulik muzaffariyatga erishishi misollar asosida dalillangan. Bugun jasorat fenomenini shakllantirishga ehtiyojning tobora ortib borayotgani e’tiborga olinsa, tadqiqotning ahamiyati beqiyos.

O‘zi ta’kidlaganidek, tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, folklor va tarixiy manbalardagi jasorat motivi Qurolli Kuchlarimiz harbiy xizmatchilari jangovar ruhini yanada mustahkamlashda muhim o‘rin tutish bilan birga, kelgusida “jasorat”, “qahramonlarning ulg‘ayish dinamikasi”, “harbiy atamalar tarixi” kabi mavzularda ilmiy tadqiqotlar olib borishga zamin hozirlaydi.

Tirishqoq, so‘zlarni tub ma’nosigacha his qiladigan tahrir ustasi, suhbatlarni latif hikoyalar bilan bezovchi, biror mavzuga qo‘l ursa uni bor butunicha tahlil qiluvchi do‘stimizni ilk ilmiy daraja bilan qutlash barobarida unga ilm va yurtga xizmat yo‘lida katta quvvat, sabr va omadlar tilaymiz!

Furqat ERGASHEV

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot

SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI
www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Shu songa mas’ul:
podpolkovnik
Gulnora Xodjamuratova

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-91
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-90

Sahifalovchi: kapitan Ramiz Valiyev
Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-5861
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 970 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv–vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya